



SOG‘LIQNI SAQLASH VA FARMATSEVTIKA SOHASIDA
KASBIY MALAKALARNI RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA
TARMOQ KENGASHI

KASBIY STANDART

**BEMORLARGA TIBBIY YORDAM
KO‘RSATISH, PARVARISH
VA PROFILAKTIKA ISHLARINI
AMALGA OSHIRUVCHI
HAMSHIRALAR**



“Bemorlarga tibbiy yordam ko‘rsatish, parvarish va profilaktika ishlarini amalga oshiruvchi hamshiralar” kasbiy standarti 2025-yil 18-dekabrda Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha Respublika kengashi majlisining 114-son bayoni bilan tasdiqlangan “Kasbiy standart shakli” hamda Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti direktorining 2025-yil 19-dekabrda 55-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Kasbiy standartlarni ishlab chiqish va yangilash metodologiyasi”ga muvofiq, Sog‘liqni saqlash va farmatsevtika sohasida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha tarmoq kengashi tomonidan ishlab chiqilgan.

KASBIY STANDART

Bemorlarga tibbiy yordam ko'rsatish, parvarish va profilaktika ishlarini amalga oshiruvchi hamshiralar

Reyestr raqami:

UZ-KS-2026-T1.0-0054



I. Umumiy ma'lumotlar

1. Ushbu Kasbiy standart hamshiralarning kasbiy faoliyatini amalga oshirishda zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, mahorat va mas'uliyat darajasini belgilaydi hamda ularning malakasini baholash, qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimini takomillashtirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

2. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

ambulator-poliklinika xizmati – bemorlarga ambulator sharoitda tibbiy yordam ko'rsatish tizimi;

antiseptika – mikroblarni yo'q qilish yoki ularni kamaytirish maqsadida ishlatiladigan usullar;

aseptika – mikroblarning tibbiy asbob-uskuna va atrof-muhitda ko'payishini oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar tizimi;

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan, o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

DACUM – korxonaning tajribali xodimlaridan iborat ekspert guruhlarida tuzilgan guruh muhokamalarini o'tkazish usuli;

davolash jarayoni – bemorga tibbiy yordam ko'rsatish uchun qo'llaniladigan qadamlar va chora-tadbirlar;

deontologiya – tibbiy xodimlar kasbiy axloq qoidalari va majburiyatlar tizimi;
epidemiya qarshi chora-tadbirlar – yuqumli kasalliklarning tarqalishini oldini olish uchun amalga oshiriladigan profilaktika ishlari;

fizioterapevtik xizmatlar – kasalliklarni davolashda fizik omillar (massaj, elektr terapiya, issiqlik va boshqalar)dan foydalanish;

gigiyena – inson salomatligini saqlash va kasalliklarning oldini olish uchun amalga oshiriladigan sanitariya va sog'lom turmush tarziga oid chora-tadbirlar;

informal ta'lim – aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgan hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olgan ta'lim shakli;

iqtisodiy faoliyat turi – savdo uchun mo'ljallangan mahsulot ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) maqsadida u yoki bu turdagi resurslarni (uskunalar, mehnat, texnologiya va boshqalar) birlashtirishga asoslangan ishlab chiqarish jarayoni;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan funksiyalar va vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasb xaritasi – kasb nomi, mehnat funksiyalari tavsifi, kasbga qo'yiladigan asosiy xususiyatlar va talablarni o'z ichiga olgan muayyan kasb to'g'risidagi tizimlashtirilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan kasbiy standartning tarkibiy elementi;

kasbiy standartlar reyestri – bu kasbiy standartlarning nomi, qamrab olingan kasblar, uni qabul qilishga oid qaror (buyruq) rekvizitlari hamda amal qilish muddatini o'z ichiga olgan tizimlashtirilgan ro'yxat;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

mehnat funksiyasi – kasbiy faoliyat doirasida xodim tomonidan belgilangan natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan mehnat vazifalari majmui;

mehnat harakatlari – xodimning mehnat predmeti bilan o'zaro ta'sirida muayyan mehnat natijasiga erishiladigan jarayon;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

norasmiy ta'lim – ta'lim xizmatlari taqdim etilishini ta'minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejalashtirilgan, shaxsni butun hayoti davomida o'qitishdagi rasmiy ta'limga qo'shimcha va (yoki) uning muqobil shakli;

sanitariya – atrof-muhitni tozalikda ushlab, yuqumli kasalliklarning tarqalishini oldini olishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar tizimi;

umumiy amaliyot tibbiyot hamshirasi – birlamchi tibbiy yordam muassasalarida faoliyat yuritayotgan, bemorlarni kuzatish, tibbiy xizmatlar ko'rsatish va salomatlikni saqlashda qatnashadigan tibbiy xodim;

3. Kasbiy standartni ishlab chiqishga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 29-avgust "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida" gi 265-I-son Qonuni;

O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 26-avgust "Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtalik to'g'risida" gi O'RQ-393-sonli Qonuni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-aprel "Birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini aholiga yaqinlashtirish va tibbiy xizmatlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-215-sonli Qarori.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabr "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-345-sonli qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-sentabr "O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tizimidagi tibbiyot tashkilotlarida O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari hisobiga tibbiy yordam ko'rsatish tartibi to'g'risida" gi nizomni tasdiqlash haqidagi 696-sonli qarori.

4. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi qisqartirishlar qo'llaniladi:

EKG – Elektrokardiogramma;

IFUT – Iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi;

NaCl – Natriy xlorid;

TMR – Tarmoq malaka ramkasi;

TVI – Tana vazni indeksi.

II. Kasbiy standartning pasporti

1.	Kasbiy standartning nomi:	Bemorlarga tibbiy yordam ko'rsatish, parvarish va profilaktika ishlarini amalga oshiruvchi hamshiralar	
2.	Kasbiy faoliyatning asosiy maqsadi:	Hamshiralik faoliyatida bemorlarga tibbiy yordam ko'rsatish, parvarish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish va kasalliklarning oldini olishga qaratilgan ishlar samaradorligini oshirish, xodimlarning malakasini milliy va xalqaro standartlar darajasida belgilovchi yagona mezonlarni joriy etish	
3.	IFUT bo'yicha seksiya, bo'lim, guruh, sinf va kichik sinf:	R seksiyasi. Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish; 86 – Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat; 86.9 – Sog'liqni saqlash sohasidagi boshqa faoliyat; 86.94 – Hamshiralik va akusherlik faoliyati; 86.94.0 – Hamshiralik va akusherlik faoliyati	
4.	Kasbiy standartning qisqacha mazmuni:	Bemorlarga malakali tibbiy yordam ko'rsatish, parvarish va profilaktika ishlarini samarali amalga oshirish orqali aholining sog'lig'ini saqlash va mustahkamlash, shuningdek, hamshiralik faoliyatida xizmat sifati, xavfsizlik va kasbiy kompetensiyalarni milliy hamda xalqaro talablar darajasida ta'minlash	
5.	Qamrab olingan kasblar ro'yxati va malaka darajasi:	Kasblar kodi va nomi:	TMR dagi malaka darajasi:
		32210001 Ayollar va bolalar salomatligi bo'yicha hamshiralar	5
		32210004 Profilaktika va jamoat sog'ligi bo'yicha hamshiralar	5
		32210006 Shoshilinch va yordamchi tibbiy xizmat hamshiralari	5
		32210007 Umumiy amaliyot tibbiyot hamshirasi	5

III. Kasbiy faoliyat turining funksional xaritasi

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
T/r	Kodi va nomi	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi
1	32210001 Ayollar va bolalar salomatligi bo'yicha hamshiralar	A1.5	Ayollar va bolalar sog'ligini muhofaza qilish va profilaktika ishlarini amalga oshirish	A1.01.5	Ayollar va bolalar uchun profilaktik ko'riklarni tashkil etishda ishtirok etish
				A1.02.5	Immunoprofilaktika va skrining tadbirlarini amalga oshirishda ishtirok etish
				A1.03.5	Aholiga reproduktiv sog'lomlik va sog'lom turmush tarzi bo'yicha sanitariya-ma'rifiy ishlar olib borish
		A2.5	Bemorlarga tibbiy yordam ko'rsatish va parvarish ishlarini amalga oshirish	A2.01.5	Tug'ruqxona va bolalar bo'limlarida shifokor ko'rsatmasiga muvofiq tibbiy manipulyatsiyalar bajarish
				A2.02.5	Ayollar va bolalarning holatini kuzatish, hayotiy ko'rsatkichlarni nazorat qilish va hisobot yuritish
		A3.5	Shoshilinch holatlarda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish	A3.01.5	Bemor holatini tezkor birlamchi baholash va hayot uchun xavf soluvchi belgilarni aniqlash
				A3.02.5	Bemor hayotini saqlab qolish uchun belgilangan protokollar asosida birinchi tibbiy yordamni ko'rsatish
				A3.03.5	Aniqlangan shoshilinch holat va ko'rsatilayotgan yordam haqida shifokorga aniq ma'lumot berish
		2	32210004 Profilaktika va jamoat sog'ligi bo'yicha hamshiralar	B1.5	Hudud salomatligini tahlil qilish va xavf guruhlarini boshqarish
B1.02.5	Aholini xavf guruhlariga ajratish va ro'yxatini yuritish				
B1.03.5	Hududdagi asosiy muammolarni aniqlash va bu haqda shifokor va rahbariyatga taklif kiritish				
B2.5	Birlamchi va ikkilamchi profilaktika chora-tadbirlarini rejalashtirish va amalga oshirish			B2.01.5	Milliy kalendar asosida xavf guruhleri o'rtasida immunoprofilaktikani to'liq xavfsizlik choralarini ko'rgan holda tashkil etish
				B2.02.5	Maqsadli guruhlarni onkologik, yurak-qon tomir kasalliklari va diabet skrininglariga faol jalb qilish va o'tkazishda ishtirok etish

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
T/r	Kodi va nomi	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi
				B2.03.5	Surunkali bemorlar uchun individual rejalarni tuzishda qatnashish va ularning o'z vaqtida ko'rikdan o'tishini nazorat qilish
3	32210006 Shoshilinch va yordamchi tibbiy xizmat hamshiralari	D1.5	Shoshilinch holatlarni baholash va tibbiy saralash o'tkazish	D1.01.5	Bemorning holatini zudlik bilan birlamchi baholash va hayotiy xavf darajasi bo'yicha tibbiy saralash o'tkazish
				D1.02.5	Bemor yoki uning yaqinlaridan shoshilinch holat bo'yicha qisqa tibbiy anamnez yig'ish
				D1.03.5	Bemorning holatini shoshilinch yordam kutish vaqtida qayta baholash va saralash kodini o'zgartirish
		D2.5	Shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish va diagnostik muolajalarni bajarish	D2.01.5	Bemorning hayotiy muhim funksiyalarini zudlik bilan tiklash va barqarorlashtirishga qaratilgan harakatlarni boshlash
				D2.02.5	Shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish uchun asbob-uskunalar, jihozlar va dori vositalarini tayyorlash
				D2.03.5	Shifokor ko'rsatmasi bo'yicha shoshilinch diagnostik muolajalarni bajarish
				D2.04.5	Shifokor ko'rsatmasi bo'yicha shoshilinch davolash muolajalarini bajarish
		D3.5	Bemorning hayotiy ko'rsatkichlarini intensiv kuzatish va parvarish qilish	D3.01.5	Bemorning hayotiy muhim ko'rsatkichlarini apparatlar yordamida uzluksiz kuzatish
				D3.02.5	Intensiv terapiya bo'limidagi bemorga maxsus parvarish amaliyotlarini bajarish
		4	32210007 Umumiy amaliyot tibbiyot hamshirasi	E1.5	Birlamchi tibbiy yordam ko'rsatish va profilaktik ishlarini amalga oshirish
E1.02.5	Emlash va kasalliklarning oldini olish bo'yicha sanitariya-ma'rifiy ishlar olib borish				
E1.03.5	Profilaktik ko'riklar natijalari bo'yicha ma'lumotlarni yuritish va shifokorga taqdim etish				

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
T/r	Kodi va nomi	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi
		E2.5	Bemorlarga tibbiy yordam ko'rsatish va parvarish ishlarini amalga oshirish	E2.01.5	Ambulatoriya va uy sharoitida shifokor ko'rsatmasiga muvofiq tibbiy manipulyatsiyalar bajarish
				E2.02.5	Bemor holatini kuzatish, hayotiy ko'rsatkichlarni qayd etish va o'zgarishlar haqida shifokorni xabardor qilish
				E2.03.5	Bemorlarga parvarish va sog'lom turmush tarzi bo'yicha amaliy tavsiyalar berish
		E3.5	Diagnostik va yordamchi tibbiy jarayonlarda ishtirok etish	E3.01.5	Asbob-uskunalarini tayyorlash va ularning ish holatini ta'minlash
				E3.02.5	Laboratoriya va instrumental tekshiruvlar uchun biologik materiallarni to'plash

IV. Kasblar xaritasi va mehnat funksiyalari tavsifi

Kasbning nomi:	Ayollar va bolalar salomatligi bo'yicha hamshiralar	
Mashg'ulot nomining kodi:	32210	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	5	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Ish staji talab etilmaydi	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	<p>Tibbiy ko'rikdan o'tgan va sog'lig'i kasbiy faoliyatni amalga oshirishga yaroqli bo'lishi.</p> <p>Belgilangan talablar va muddatlarga rioya qilgan holda ish jarayonlarini sifatli hamda xavfsiz amalga oshirish.</p> <p>Texnik va tashkiliy masalalarni tezkor hamda me'yoriy hujjatlar asosida hal etish.</p> <p>Yangi texnologiyalar, ilg'or usullar va zamonaviy tibbiy yo'nalishlarni o'zlashtirishga intilish.</p> <p>Jamoaviy ishda faol ishtirok etish, o'zaro hurmat va samarali hamkorlik muhitini saqlash.</p> <p>Muammolarni tahlil qilish va samarali yechim topish qobiliyatini namoyon etish.</p> <p>Axborot maxfiyligini ta'minlash va tibbiy sirni saqlash.</p> <p>Faoliyatda aniqlik, diqqat va mas'uliyatni ta'minlash.</p> <p>Kasbiy etika va deontologiya qoidalariga qat'iy rioya qilish.</p> <p>Malakasini doimiy ravishda oshirish va amaliyotda qo'llash.</p> <p>Shoshilinch holatlarda bosiqlik va tezkor qaror qabul qilish.</p>	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	o'rta maxsus professional ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	boshlang'ich professional ta'lim yoki o'rta professional ta'lim + norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	-	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	-	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	4	Tibbiy-mehnat ekspertiza hamshirasi
	5	Feldsher
	5	Tibbiy laborant
	6	Akusherka
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
	O'qitish natijalari	
	Mehnat harakatlari:	
	1. Shifokor bilan hamkorlikda profilaktik ko'riklar rejasini tuzish va muvofiqlashtirish	

A1.5 - Ayollar va bolalar sog'ligini muhofaza qilish va profilaktika ishlarini amalga oshirish	A1.01.5 - Ayollar va bolalar uchun profilaktik ko'riklarni tashkil etishda ishtirok etish	2. Ko'rik o'tkazish uchun ish joyi, zarur tibbiy asbob-uskunalar va anjomlarni sanitariya-gigiyena qoidalariga muvofiq tayyorlash
		3. Ayollar va bolalarni ko'rikka tayyorlash, navbatni tartibga solish va ularga psixologik ko'mak ko'rsatish
		4. Shifokor ko'rsatmasiga binoan klinik ko'rsatkichlarni aniqlash va qayd etish
		5. Profilaktik tadbirlar o'tkazilishida ishtirok etish va infeksiya nazorati qoidalariga rioya qilish
		6. Olingan ma'lumotlar va ko'rik natijalarini belgilangan tibbiy hujjatlarga, elektron axborot tizimlariga kiritish
		7. Profilaktik ko'rik natijalari bo'yicha hisobotlarni tayyorlashda ishtirok etish
		Ko'nikmalar:
		Xona va ish joyini sanitariya-gigiyena talablariga muvofiq tayyorlash
		Infeksiya nazorati qoidalariga rioya qilish
		Tibbiy asbob-uskunalarni ishga tayyorligini tekshirish va dezinfeksiya qilish usullarini qo'llash
		Tana haroratini o'lchash
		Antropometrik o'lchovlarni o'tkazish
		Puls va nafas olish harakatlari sonini to'g'ri hisoblash
		Arterial qon bosimini o'lchash
		Olingan barcha ko'rsatkichlarni bemorning tibbiy kartasiga aniq va xatosiz qayd qilish
		Shifokor ko'rsatmasiga binoan vaktsinalar va dori vositalarini inyeksiya qilishning usullarini xavfsiz qo'llash
		Tibbiy axborot tizimlariga ma'lumotlarni kiritish va ular bilan ishlash
		Bilimlar:
		Profilaktik ko'rik xonasini sanitariya-gigiyena talablariga muvofiq tayyorlash tartibi
		Ko'rikda qo'llaniladigan asbob-uskunalarni ishga tayyorlash, sozlash va dezinfeksiya qilish qoidalari
		Aseptika va antiseptika qoidalari hamda infeksiya nazorati choralari
		Tibbiy etika va deontologiya asoslari
		Ayollar va turli yoshdagi bolalar bilan psixologik aloqa o'rnatish tamoyillari
Antropometriya o'lchash metodikasi		
Tana haroratini o'lchash metodikasi va natijalarni baholash asoslari		
Arterial qon bosimini o'lchash metodikasi va yoshga oid normalari		
Inyeksiyalarning turlari va ularni bajarish texnikasi		
Profilaktik ko'rik ma'lumotlarini qayd etuvchi birlamchi tibbiy hujjatlarni yuritish qoidalari		
Tibbiy axborot tizimlariga ma'lumotlarni kiritish tartibi		

		Dori vositalarini saqlash va qo'llash usullari
		Mehnat harakatlari:
		1. Shifokor bilan hamkorlikda emlash va skrining tadbirlarini rejalashtirish
		2. Vaksinalar va dori vositalarini "sovuqlik zanjiri" talablariga muvofiq qabul qilish, saqlash va hisobini yuritish
		3. Muolaja oldidan bemorning holatini baholash
		4. Vaksina yoki dori vositasini shifokor ko'rsatmasiga binoan tayyorlash va dozalash
		5. Belgilangan texnika asosida inyeksiya qilish
		6. Muolajadan keyingi holatni kuzatish va nazorat qilish
		7. Skrining tekshiruvlari uchun biomaterial namunasini olish
		8. Emlash jarayonida sanitariya-gigiyena va infeksiya nazorati qoidalariga rioya etilishini ta'minlash
		9. Ehtimoliy shoshilinch holatlarda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish
		10. Qilingan emlash va skrining natijalarini tibbiy hujjatlarga qayd etish
		Ko'nikmalar:
	A1.02.5 - Immunoprofilaktika va skrining tadbirlarini amalga oshirishda ishtirok etish	Muolaja xonasi va ish joyini aseptika va antiseptika qoidalariga muvofiq tayyorlash
		Tibbiy anjomlarni va skrining vositalarini ishga tayyorligini tekshirish va dezinfeksiya qilish
		Infeksiya tarqalishining oldini olish qoidalariga rioya qilish
		Ishlatilgan anjomlarni xavfsiz utilizatsiya qilish
		Bemorlar va ularning ota-onalariga emlash yoki skrining jarayonini tushuntirish va ularni psixologik tayyorlash
		Shifokor ko'rsatmasiga binoan vaksina yoki dori vositasini tayyorlash va kerakli dozani aniq o'lchab tortish
		Skrining tekshiruvlari uchun biomaterial namunasini olish texnikasini qo'llash
		Vaksina turiga va bemor yoshiga mos inyeksiya texnikasini xavfsiz qo'llash
		Emlashdan keyingi nojo'ya reaksiyalar yuzaga kelganda shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish
		Ma'lumotlarni tibbiy axborot tizimlariga kiritish va hisobot tayyorlash
		Bilimlar:
		Aseptika, antiseptika, infeksiya nazorati va sterilizatsiya qoidalari
		Tibbiy chiqindilarni xavfsiz yig'ish va yo'q qilish tartibi
		Tibbiy anjomlarni ishga tayyorlash va dezinfeksiya qilish qoidalari

		Tibbiy etika, deontologiya va bemor bilan muloqot madaniyati
		Dori vositalarini saqlash qoidalari
		Dori vositalari, ularning dozasi va qo'llash usullari
		Skrining uchun biomaterial olish texnikasi asoslari
		Inyeksiyalarning turlari va ularni bajarish texnikasi
		Tibbiy hujjatlarni rasmiylashtirish, yozuvlarni yuritish va hisobot berish tartibi
		Milliy emlash kalendari va vaksinalarni qo'llash bo'yicha yo'riqnomalar
		Emlashdan keyingi nojo'ya reaksiyalar va asoratlarning belgilari
		Birlamchi tibbiy yordam ko'rsatish asoslari
		Shoshilinch holatlarda amalga oshiriladigan tibbiy yordam usullari
		Tibbiy axborot tizimlaridan foydalanish tartibi
	A1.03.5 - Aholiga reproduktiv sog'lomlik va sog'lom turmush tarzi bo'yicha sanitariya-ma'rifiy ishlar olib borish	Mehnat harakatlari:
		1. Shifokor bilan hamkorlikda aholi o'rtasida o'tkaziladigan sanitariya-ma'rifiy ishlar rejasini tuzish
		2. Maqsadli auditoriya uchun reproduktiv salomatlik, gigiyena, bola parvarishi va sog'lom turmush tarzi bo'yicha suhbat materiallarini tayyorlash
		3. Tibbiy muassasa sharoitida va patronaj vaqtida individual maslahatlar berish
		4. Aholi o'rtasida reproduktiv salomatlik va sog'lom ovqatlanish mavzularida guruhli suhbatlar, ma'ruzalar o'tkazish
		5. Tibbiy muassasadagi ko'rgazmali targ'ibot vositalarini yangilab borish va joylashtirish
		Ko'nikmalar:
		Bemorlar va ularning oila a'zolari bilan ularning ehtiyojiga mos ravishda psixologik aloqa o'rnatish va suhbatlashish
		Sog'lom turmush tarzi va reproduktiv salomatlik mavzularida individual maslahat berish
		Aholi guruhlari oldida mavzuni tushunarli tilda taqdimot qilish
		Mavzuga oid tayyor ko'rgazmali materiallarni to'g'ri tanlash va joylashtirish
		Guruh savollariga to'g'ri va xotirjam javob berish
		Bilimlar:
		Ayollar va bolalar gigiyena talablari
		Ayollar va bolalarning yoshiga oid psixologik xususiyatlari
	Sog'lom turmush tarzi tamoyillari	
	Reproduktiv salomatlik asoslari va oila qurishni rejalashtirishning zamonaviy usullari	

		Bolalarni parvarishlash va ularning yoshga oid rivojlanishi asoslari
		Sanitariya-ma'rifiy ishlar uchun materiallarni tayyorlash va guruhlar oldida taqdimot qilish metodikasi
		Sanitariya-ma'rifiy ishlar bo'yicha tibbiy hujjatlarni rasmiylashtirish, yozuvlarni yuritish va hisobot berish tartibi
		Tegishli tibbiy axborot tizimlariga ma'lumotlarni kiritish va ulardan foydalanish qoidalari
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Kasbiy faoliyat jarayonlari va natijalari uchun shaxsan javobgarlik
		2. Tibbiy parvarish va bemorlarga yordam ko'rsatishni belgilangan standart va protokollar asosida mustaqil bajarish bo'yicha mas'uliyat
		3. Bemor xavfsizligi, sanitariya-gigiyena va infeksiya nazorati talablariga rioya qilish bo'yicha mas'uliyat
		4. Zarur bo'lganda, muammolarni hal qilish uchun mustaqil qarorlar qabul qilish
A2.5 - Bemorlarga tibbiy yordam ko'rsatish va parvarish ishlarini amalga oshirish	A2.01.5 - Tug'ruqxona va bolalar bo'limlarida shifokor ko'rsatmasiga muvofiq tibbiy manipulyatsiyalar bajarish	Mehnat harakatlari:
		1. Bemorga muolaja jarayonini tushuntirish va ularni psixologik tayyorlash
		2. Shifokor ko'rsatmasiga muvofiq dori vositalarini tayyorlash va dozalash
		3. Inyeksiyalarning barcha turlarini belgilangan texnika asosida bajarish
		4. Infuzion terapiyani o'rnatish, dori yuborish tezligini nazorat qilish va bemor holatini kuzatish
		5. Laboratoriya tekshiruvlari uchun biomateriallar namunalarini olish
		6. Ona va bolaning hayotiy muhim ko'rsatkichlarini o'lchash va monitoring qilish
		7. Jarohatlarga, choklarga ishlov berish va bog'lov qo'yish
		8. Bemorlarni parvarishlash
		9. Shoshilinch holatlarda darhol shifokorni chaqirish va birinchi tibbiy yordam ko'rsatishni boshlash
		Ko'nikmalar:
		Bemor bilan psixologik aloqa o'rnatish va muolaja jarayonini sodda tilda tushuntirish
		Bemor shaxsiy gigiyenasini ta'minlash va yotoq yalarining oldini olish usullarini qo'llash
		Hayotiy muhim ko'rsatkichlarni maxsus uskunalar yordamida o'lchash
Shifokor ko'rsatmasiga binoan dori vositasini tanlash, dozasi aniq hisoblash va inyeksiya/infuziya uchun tayyorlash		
Laboratoriya tahlillari uchun biomateriallarni olish		

		Aseptika va antiseptika qoidalariga rioya qilgan holda inyeksiyalarning barcha turlarini bajarish
		Vena ichiga inyeksiya va infuzion tizimni o'rnatish
		Jarohatlarga va operatsiyadan keyingi choklarga aseptik ishlov berish va bog'lov qo'yish texnikasini qo'llash
		Infuziya davomida dori yuborish tezligini va bemorning umumiy ahvoli dinamikasini nazorat qilish
		Dori vositalarining nojo'ya ta'sirlarini va bemor holatidagi o'tkir yomonlashuv belgilarini aniqlash
		Shoshilinch holatlarda shifokor kelguniga qadar birlamchi reanimatsiya va birinchi yordam ko'rsatish algoritmlarini qo'llash
		Bilimlar:
		Bemor parvarishi asoslari
		Inson anatomiyasi va fiziologiyasi
		Klinik ko'rsatkichlarni o'lchash metodikasi
		Aseptika, antiseptika, infeksiya nazorati va sterilizatsiya qoidalari
		Dori vositalari, ularning dozasi va qo'llash usullari
		Inyeksiyalarning turlari va ularni bajarish texnikasi
		Vena ichiga infuziya o'rnatish qoidalari
		Laboratoriya tekshiruvlari uchun biomateriallarni olish, saqlash va ishlov berish qoidalari
		Jarohatlar va choklarni parvarishlash, bog'lov turlari va ularni qo'yish texnikasi
		Dori vositalarining nojo'ya ta'sirlari va allergik reaksiyalar belgilari
		Bemorlarni kuzatish va holatini baholash (monitoring qilish) usullari
		Birlamchi tibbiy yordam ko'rsatish tartiblari
	Yurak-o'pka reanimatsiyasining bazaviy algoritmlari	
	Mehnat harakatlari:	
	1. Bemorning umumiy ahvolini muntazam vizual baholash	
	2. Tana harorati, arterial qon bosimi, puls, nafas olish soni, qondagi kislorod miqdori kabi ko'rsatkichlarni belgilangan davriylikda o'lchash	
	3. Ayollarda tug'ruqdan keyingi davrga xos ko'rsatkichlarni nazorat qilish	
	4. Qo'llanilayotgan dori vositalarining ta'sirini va ehtimoliy nojo'ya reaksiyalarni kuzatish	
	5. Shifokorga bemor holatidagi har qanday salbiy o'zgarishlar haqida darhol xabar berish	
	6. Bemor holatini nazorat qilish uchun tibbiy uskunalardan foydalanish	
7. Barcha kuzatuv ma'lumotlari va o'lchov natijalarini bemorning tibbiy kartasiga aniq va o'z vaqtida qayd etish		
A2.02.5 - Ayollar va bolalarning holatini kuzatish, hayotiy ko'rsatkichlarni nazorat qilish va hisobot yuritish		

		8. Olingan ma'lumotlarni elektron tibbiy axborot tizimlariga kiritish va hisobot yuritish
		9. Smena almashinuvi vaqtida bemorlarning holati to'g'risida navbatchi hamshiraga to'liq hisobot berish
		Ko'nikmalar:
		Bemorning teri rangi, shilliq qavatlari va ong darajasidagi o'zgarishlarni farqlash
		Og'riq belgilarini va bezovtalik darajasini aniqlash
		O'tkazilgan kuzatuv va o'lchov natijalarini tibbiy kartadagi parvarish varaqasiga aniq va xatosiz qayd etish
		Tana haroratini turli usullarda o'lchash texnikasini qo'llash
		Arterial qon bosimini o'lchash texnikasini qo'llash
		Puls va nafas olish harakatlari sonini hisoblash texnikasini qo'llash
		Pulsoksimetr yordamida qondagi kislorod miqdorini o'lchash
		Ayollarda tug'ruqdan keyingi holatni baholash
		Monitorlar, infuzomatlar va pulsoksimetrlarning signallarini tushunish va interpretatsiya qilish
		Bemor holatidagi o'zgarishlarni shifokorga aniq va qisqa tushuntirib berish
		Kuzatuv ma'lumotlarini elektron tibbiy axborot tizimlariga kiritish
		Bilimlar:
		Tibbiy etika, deontologiya va bemor bilan muloqot madaniyati
		Tibbiy hujjatlarni rasmiylashtirish va hisobot berish tartibi
		Inson anatomiyasi va fiziologiyasi
		Klinik ko'rsatkichlarni o'lchash metodologiyasi
		Oddiy tibbiy uskunalardan foydalanish qoidalari
		Ayollarda tug'ruqdan keyingi davr fiziologiyasi va patologiyasi
		Yangi tug'ilgan chaqaloqlar fiziologiyasi va patologiyasi
		Bemorlarni kuzatish va holatini baholash usullari
		Dori vositalarining noxush ta'sirlari va allergik reaksiyalar belgilari
		Birlamchi tibbiy yordam ko'rsatish va shoshilinch holatlarda amalga oshiriladigan tibbiy yordam usullari
		Kuzatuv monitorlari va infuzomatlarning ishlash prinsiplari va ularning signallari
		Tibbiy axborot tizimlariga ma'lumotlarni kiritish tartibi
	Mas'uliyat mustaqillik:	1. O'z harakatlari, ish natijalari uchun javobgarlik
	va	2. Zarur bo'lganda, muammolarni hal qilish uchun mustaqil qarorlar qabul qilish

A3.5 - Shoshilinch holatlarda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish	A3.01.5 - Bemor holatini tezkor birlamchi baholash va hayot uchun xavf soluvchi belgilarni aniqlash	Mehnat harakatlari:
		1. Bemorning ong darajasini ovozli va yengil taktil stimullar orqali tekshirish
		2. Hayot uchun xavf soluvchi kuchli tashqi qon ketish belgilarini aniqlash uchun bemorni tezkor ko'zdan kechirish
		3. Nafas yo'llarining ochiqqligini vizual tekshirish
		4. Nafas olish harakatlari mavjudligini va uning sonini baholash
		5. Qon aylanish belgilarini baholash
		6. Bemor terisining rangini va namligini baholash
		7. Birlamchi baholash natijalariga ko'ra bemor holatining og'irlik darajasi haqida dastlabki xulosa chiqarish
		Ko'nikmalar:
		Bemorning ong darajasini ovozli chaqiriqqa va yengil teginishga bo'lgan reaksiyasini baholash
		Bemor terisining rangini va namligini ko'z bilan ajrata olish
		Hayot uchun xavf soluvchi kuchli tashqi qon ketish o'choqlarini tezkor ko'zdan kechirib topish
		Nafas yo'llarining ochiqqligini vizual tekshirish
		Nafas olish harakatlari mavjudligini eshitish usuli bilan tekshirish
		Periferik va markaziy pulsni topa olish va uning mavjudligini aniqlash
		Kapillyar to'lish vaqtini tekshirish
		Birlamchi baholash natijalariga asoslanib, bemor holatining og'irlik darajasi haqida dastlabki xulosa chiqarish
		Bilimlar:
		Shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish va infeksiya nazorati asoslari
		Ong darajasini baholashning xalqaro shkalalari
		Nafas olishni baholashning usullari
		Pulsni paypaslash texnikasi
		Kapillyar to'lish vaqtini o'lchash texnikasi
		Ayollar va bolalarning turli yosh toifalarida hayotiy muhim ko'rsatkichlarning normalari
		Nafas yetishmovchiligining asosiy belgilari
		Kuchli qon ketishning tashqi va ichki belgilari
		Shoshilinch yordamda birlamchi baholashning xalqaro protokollari
	Baholash natijalariga ko'ra bemor holatining og'irlik darajasi haqida tezkor xulosa chiqarish tamoyillari	
		Mehnat harakatlari:
		1. Nafas yo'llarining o'tkazuvchanligini ta'minlash
		2. Birlamchi yurak-o'pka reanimatsiyasini boshlash

	A3.02.5 - Bemor hayotini saqlab qolish uchun belgilangan protokollar asosida birinchi tibbiy yordamni ko'rsatish	3. Bemor hushsiz, ammo nafas olayotgan bo'lsa, uni barqaror yon holatga o'tkazish
		4. Shoshilinch holatda shifokor ko'rsatmasiga binoan dori vositalarini tayyorlash va inyeksiya qilish
		5. Shifokor ko'rsatmasiga binoan vena yo'lini o'rnatish va infuzion terapiyani boshlash
		6. Jarohatlarda birlamchi yordam ko'rsatish
		Ko'nikmalar:
		Og'iz bo'shlig'ini begona jismlardan tozalash usulini qo'llash
		Hushsiz, ammo nafas olayotgan bemorni barqaror yon holatga o'tkazish texnikasini qo'llash
		Jarohatga aseptik bog'lam qo'yish texnikasini qo'llash
		Tashqi qon ketishni to'xtatish usullarini qo'llash
		Kuyish va jarohatlarda birlamchi ishlov berish texnikasini qo'llash
		Shifokor ko'rsatmasiga binoan dori vositasini steril sharoitda shprintsiga tortish
		Dori vositasining kerakli dozasi aniq hisoblash
		Shoshilinch holatda inyeksiyalarni bajarish texnikasini qo'llash
		Periferik vena kateterini o'rnatish texnikasini qo'llash
		Infuzion tizimni tayyorlash va venoz kateterga ulash texnikasini qo'llash
		Infuziya tezligini hisoblash va sozlash
		Yurak-o'pka reanimatsiyasining bazaviy algoritmini bajarish
		Bilimlar:
		Birlamchi tibbiy yordam ko'rsatishning asosiy prinsiplari
		Tashqi qon ketishni to'xtatish usullari
		Kuyish va jarohatlarda birinchi yordam ko'rsatish tamoyillari
		Dori vositalari, ularning dozasi va qo'llash usullari
		Dori dozalarini hisoblashning arifmetik qoidalari
		Inyeksiyalarning turlari va ularni bajarish texnikasi
		Periferik vena kateterini o'rnatish qoidalari, texnikasi va ehtimoliy asoratlari
		Infuzion tizimlarni tayyorlash va ulash tartibi
		Infuziya tezligini hisoblash formulalari
		Shoshilinch holatlarda amalga oshiriladigan tibbiy yordam usullari
		Yurak-o'pka reanimatsiyasining bazaviy protokollari
	Mas'uliyat mustaqillik:	va
		2. Zarur bo'lganda, muammolarni hal qilish uchun mustaqil qarorlar qabul qilish

Texnik va/yoki texnologik talab:	Muolaja xonasi, lampa, kushetka, qo'l yuvish vositalari, rakovina, tonometr, fonendoskop, termometr, pulsoksimetr, glyukometr, chaqaloqlar uchun tarozi, bo'y o'lchagich, kislorod berish vositalari, sterilizatsiya uskunalari, tibbiy chiqindilar uchun maxsus konteynerlar, kompyuter jamlanmasi, internet aloqasi, tibbiy axborot tizimlari, shprislar va ignalar, infuzion tizimlar, periferik vena kateterlari, steril va nosteril bint, paxta, tamponlar, bog'lov materiallari, tibbiy xalat, bosh kiyim, bir martalik steril va nosteril qo'lqoplar, tibbiy niqoblar, himoya ekranlari, baxilalar, sovun, antiseptik vositalar, tibbiy spirt, dezinfeksiya uchun vositalar, klinik protokollar, standart operatsion tartiblar, aseptika va antiseptika qoidalari, infeksiya nazorati texnologiyalari, shoshilinch yordam algoritmlari
---	---

Kasbning nomi:	Profilaktika va jamoat sog'ligi bo'yicha hamshiralar	
Mashg'ulot nomining kodi:	32210	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	5	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun ish staji talab etilmaydi, lekin o'rta maxsus tibbiy ta'lim muassasasini tamomlagan bo'lishi va 6 oylik majburiy adaptatsiyadan o'tishi shart	
Layoqatiga va kompetensiyalarga shaxsiy qo'yilgan talablar:	<p>Jismoniy va ruhiy jihatdan sog'lom bo'lish va kasbiy faoliyatni amalga oshirishga yaroqliligi to'g'risida tibbiy ko'rikdan o'tgan bo'lish.</p> <p>Bemorlar, ularning oila a'zolari va hamkasblar bilan muomala qilishda kasbiy odob-axloq va deontologiya qoidalariga qat'iy rioya qilish.</p> <p>Tibbiy sirni, bemorning shaxsiy hayoti va oilaviy ma'lumotlarning axborot maxfiyiligini ta'minlash.</p> <p>Ijtimoiy va madaniy qatlamdagi odamlar bilan hamdardlikka asoslangan holda muloqot qura olish.</p> <p>Aholiga murakkab tibbiy ma'lumotlarni sodda, tushunarli tilda yetkazish va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish.</p> <p>Poliklinikadan tashqarida, ko'pincha bevosita nazoratsiz ishlaganda ham belgilangan vazifalarni aniq, sifatli va o'z vaqtida bajarish.</p> <p>Yangi vaktsinalar, yangi skrining usullari va zamonaviy tibbiy yo'nalishlarni o'zlashtirishga doimiy intilish va malakasini oshirib borish.</p> <p>Muammolarni tahlil qilish va me'yoriy hujjatlar asosida yechim taklif etish.</p> <p>Shoshilinch holatlarda va kutilmagan ijtimoiy vaziyatlarda bosiqlik saqlash va tezkor qaror qabul qilish.</p>	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	o'rta maxsus professional ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	boshlang'ich professional ta'lim yoki o'rta professional ta'lim + norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	-	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	-	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	4	Tibbiy-mehnat ekspertiza hamshirasi

Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
<p>B1.5 - Hudud salomatligini tahlil qilish va xavf guruhlarini boshqarish</p>	<p>B1.01.5 - Hududning "salomatlik pasporti"ni shakllantirish va doimiy yangilab borish</p>	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Biriktirilgan hududdagi aholining to'liq ro'yxatini shakllantirish va birlamchi ma'lumotlarni yig'ish
		2. Yig'ilgan ma'lumotlarni poliklinika registratura ma'lumotlari, ambulator kartalar va mahalla qo'mitasi ma'lumotlari bilan solishtirib chiqish
		3. Har bir aholi vakili va oila bo'yicha asosiy demografik va ijtimoiy ma'lumotlarni to'plash va kiritish
		4. Aholini sog'lig'i holati va ijtimoiy ehtiyojlari bo'yicha "xavf guruhleri"ga ajratish
		5. Hududdagi demografik o'zgarishlarni FHDYo va mahalla ma'lumotlari asosida pasportga muntazam kiritib borish
		6. Shifokor ko'rigi, skrininglar va yangi tashxislar asosida aholining salomatlik holatidagi o'zgarishlarni pasportga qayd etish
		7. Yig'ilgan va yangilangan ma'lumotlar asosida "Hududning salomatlik pasporti"ni to'liq va aniq yuritilishini ta'minlash
		Ko'nikmalar:
		Aholi bilan birlamchi professional muloqot o'rnatish
		Ma'lumotlarni yig'ish uchun so'rovnomaga o'tkazish
		Biriktirilgan hudud xaritasi yoki ro'yxati asosida uy-uy yurish marshrutini rejalashtirish
		Birlamchi ma'lumotlarni belgilangan hisobot shakliga aniq, xatosiz va tushunarli dastxat bilan qayd etish
		MS Excel kabi ofis dasturlarida jadvallar bilan ishlash
		Suhbat davomida ijtimoiy ma'lumotlarni ehtiyotkorlik bilan so'rash va aniqlashtirish
		Tibbiy tashxislarni va ijtimoiy holatlarni tushunish va to'g'ri sharhlay olish
		Belgilangan mezonlar asosida aholini tegishli "xavf guruhleri"ga to'g'ri tasniflash
		Tibbiy terminologiya va yangi qo'yilgan tashxisning MKB-10 kodini tushunish va pasportga to'g'ri kiritish
		Bilimlar:
		O'zbekiston Respublikasining sog'liqni saqlashga oid qonunchiliklari
Birlamchi tibbiy hujjatlarni yuritish va saqlash qoidalari		
Aholini tibbiy va ijtimoiy holati bo'yicha "xavf guruhleri"ga ajratish mezonlari		
Kasalliklarning xalqaro tasnifining asosiy guruhleri va kodlari haqida umumiy tushunchalar		
Tibbiy axborot tizimlari bilan ishlashning umumiy prinsiplari va axborot xavfsizligi asoslari		

		O'ziga biriktirilgan hududning demografik va ijtimoiy xususiyatlari haqida umumiy ma'lumotlar
		FHDYo va mahalla qo'mitasi kabi tashkilotlar bilan ma'lumot almashish tartibi
	B1.02.5 - Aholini xavf guruhlariga ajratish va ro'yxatini yuritish	Mehnat harakatlari:
		1. Mavjud "Salomatlik pasporti" ma'lumotlarini, shuningdek shifokor ko'rigi, skrining natijalari va ambulator kartalardagi yangi tashxislarni tahlil qilish
		2. Tahlil asosida aholini tasdiqlangan mezonlarga ko'ra asosiy "xavf guruhleri" bo'yicha tasniflash
		3. Har bir aniqlangan xavf guruhi uchun alohida nomma-nom ro'yxat (reyestr) shakllantirish
		4. Ushbu maxsus ro'yxatlarga yangi ma'lumotlar kelib tushishi bilan unga o'zgartirish kiritish
		5. Xavf guruhleri ro'yxatlarining dolzarbligini doimiy ta'minlash va umumiy amaliyot shifokori hamda katta hamshira uchun foydalanishga tayyor holatda saqlash
		Ko'nikmalar:
		Ambulator kartalar, shifokor xulosalari va tahlil natijalaridan tashxislarni, MKB-10 kodlarini va xavf omillarini o'qish va sharhlash
		Tibbiy axborot tizimlari yoki MS Excelda "Filtr" va "Saralash" funksiyalaridan foydalanish
		Maxsus ro'yxatlar uchun yangi elektron jadval yaratish
		Ma'lumotlarni bir hujjatdan aniq va xatosiz ko'chirib yozish
		Axborot tizimi yoki jadvallarda mavjud yozuvlarni topish va tahrirlash
		Bemorning holati o'zgarganda yozuvning statusini o'zgartirish yoki uni arxivlash
		Yuritilayotgan ro'yxatlarning to'liqligi va aniqligini o'z-o'zini tekshirish
		Shifokor yoki katta hamshira so'roviga binoan kerakli ma'lumotni tez topish va taqdim etish
		Bilimlar:
		Aholini dispanserizatsiya qilish va surunkali kasalliklarni boshqarish bo'yicha amaldagi Sog'liqni saqlash vazirligi buyruqlari va normativ hujjatlari
		Tibbiy axborot tizimlari bilan ishlashning umumiy prinsiplari va asosiy funksional imkoniyatlari
		MS Excel kabi ofis dasturlarining asosiy funksiyalari
		Bemorlarni dispanser guruhlariga ajratishning aniq mezonlari
	Birlamchi bo'g'inda eng ko'p uchraydigan surunkali kasalliklarning MKB-10 bo'yicha kodlari	
	Asosiy tibbiy-ijtimoiy "xavf guruhleri"ning ta'rifi va mezonlari	

		Asosiy laborator va instrumental tekshiruvlarning normal ko'rsatkichlari
		Birlamchi tibbiy hujjatlarning tuzilishi va ularni yuritish qoidalari
B1.03.5 - Hududdagi asosiy muammolarni aniqlash va bu haqda shifokor va rahbariyatga taklif kiritish		Maxsus ro'yxatlarni (reyestrlarni) shakllantirish, yuritish, yangilash va arxivlash tartibi
		Tibbiy sir va shaxsga doir ma'lumotlar bilan ishlash bo'yicha qonunchilik talablari
		Mehnat harakatlari:
		1. "Salomatlik pasporti" va "Xavf guruhleri" ro'yxatlaridan olingan statistik ma'lumotlarni umumlashtirish va tahlil qilish
		2. Tahlil asosida hudud uchun xos bo'lgan tizimli muammolarni yoki salbiy tendensiyalarni aniqlash
		3. Aniqlangan muammolarning ehtimoliy sabablarini birlamchi baholash
		4. Aniqlangan muammolar va ularning ehtimoliy sabablari to'g'risida tahliliy ma'lumotnoma tayyorlash
		5. Tayyorlangan ma'lumotnomani va uning asosidagi profilaktik chora-tadbirlar bo'yicha takliflarni Umumiy amaliyot shifokori va poliklinika rahbariyatiga taqdim etish
		Ko'nikmalar:
		To'plangan ma'lumotlarni sharhlay olish va oddiy statistik ko'rsatkichlarni aniqlash
		Ma'lumotlar orasidagi g'ayrioddiy holatlarni, klasterlarni yoki salbiy tendensiyalarni sezish (aniqlash)
		Tibbiy muammolar va ehtimoliy ijtimoiy yoki sanitar sabablar o'rtasida oddiy mantiqiy bog'liqlikni topa olish
		Aniqlangan muammo va uning sabablari haqida qisqa sodd va tushunarli tilda tahliliy ma'lumotnoma matnini tayyorlay olish
		Muammo yechimi bo'yicha amaliy takliflarni shakllantira olish
		O'z tahlili va takliflarini umumiy amaliyot shifokori yoki rahbariyat oldida ravishda taqdimot qilish
		Bilimlar:
		Aholi salomatligiga oid asosiy ko'rsatkichlarni (kasallanish, o'lim, nogironlik) hisoblash va ularni solishtirish usullari
	Kasalliklarning tarqalish sabablari, xavf guruhlarini aniqlash mezonlari va skrining tekshiruvlarini tashkil etish tartibi	
	"Salomatlik pasporti"ni to'ldirish, dispanserizatsiya o'tkazish va birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarida hisobot yuritish qoidalari	

		<p>Kasalliklarning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini tuzish, aholi o'rtasida tushuntirish ishlarini olib borish metodikasi</p> <p>Tahliliy ma'lumotnomalarni yozish uslubi, o'z takliflarini rahbariyatga sodda va asoslangan holda yetkazish qoidalari</p>
	Mas'uliyat mustaqillik: va	<p>1. Umumiy amaliyot shifokori va katta hamshira rahbarligi ostida, tasdiqlangan yo'riqnomalar va me'yoriy hujjatlar asosida faoliyat yuritish</p> <p>2. O'zining kundalik ish rejasini belgilangan vazifalar doirasida mustaqil rejalashtirish</p> <p>3. "Salomatlik pasporti" va "Xavf guruhleri" ro'yxatidagi ma'lumotlarni tahlil qilish asosida hududdagi muammolarni mustaqil ravishda aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflarni rahbariyatga kiritish</p> <p>4. Biriktirilgan hududning "Salomatlik pasporti" va "Xavf guruhleri" ro'yxatlaridagi ma'lumotlarning to'g'riligi, to'liqligi va dolzarbligi uchun shaxsiy mas'uliyat</p> <p>5. Ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va saqlash jarayonida tibbiy sir va aholining shaxsiy ma'lumotlari maxfiyligiga qat'iy rioya qilinishi uchun javobgarlik</p> <p>6. Tahliliy ma'lumotnomalar va takliflar shifokor hamda rahbariyatga o'z vaqtida taqdim etish mas'uliyati</p>
B2.5 - Birlamchi va ikkilamchi profilaktika chora-tadbirlarini rejalashtirish va amalga oshirish	B2.01.5 - Milliy kalendar asosida xavf guruhleri o'rtasida immunoprofilaktikani to'liq xavfsizlik choralarini ko'rgan holda tashkil etish	<p>Mehnat harakatlari:</p> <p>1. Milliy emlash kalendarini asosida emlanishi kerak bo'lgan shaxslarni aniqlash va ularni emlashga chaqirishni rejalashtirish</p> <p>2. Vaksinalarni qabul qilish, saqlash va tashish jarayonida "sovuqlik zanjiri" talablariga qat'iy rioya qilinishini ta'minlash hamda vaksinalarning yaroqlilik muddatini nazorat qilish</p> <p>3. Emlash xonasining sanitariya holatini va zarur anjomlarni tayyorlash hamda shoshilinch yordam to'plamining mavjudligi va yaroqliligini tekshirish</p> <p>4. Emlash oldidan bemorni vaktsina turi, kutiladigan reaksiyalar va emlashdan keyingi parvarish haqida xabardor qilish va roziligini olish</p> <p>5. Shifokor ko'rigidan o'tgan va emlashga ruxsat berilgan shaxslarga vaksinalarni tasdiqlangan texnika asosida xavfsiz yuborish</p> <p>6. Emlashdan so'ng bemorning ahvolini kamida 30 daqiqa davomida kuzatish va kutilmagan nojo'ya reaksiyalar yuzaga kelganda birinchi yordam ko'rsatish hamda shifokorni xabardor qilish</p> <p>7. Amalga oshirilgan emlash to'g'risidagi ma'lumotlarni belgilangan jurnallarga, bemorning emlash kartasiga va elektron axborot tizimiga o'z vaqtida va aniq kiritish</p>

	<p>8. Emlashdan bosh tortgan holatlarni qayd etish, sabablarini aniqlash va ular bilan tushuntirish ishlari olib borish uchun shifokor bilan hamkorlik qilish</p>
	<p>Ko'nikmalar:</p>
	<p>"Salomatlik pasporti" yoki "xavf guruhleri" ro'yxatlaridan emlash kalendari bo'yicha tegishli shaxslar ro'yxatini ajratib olish</p>
	<p>Vaksinalarni saqlashda va tashishda "sovuqlik zanjiri" termometr ko'rsatkichlarini nazorat qilish</p>
	<p>Anafilaktik shokda birinchi yordam ko'rsatish uchun "shok aptechkasi"ni jamlash va dori vositalarining yaroqliligini tekshirish</p>
	<p>Bemorga vakcina, uning ta'siri va nojo'ya reaksiyalari haqida sodda, tushunarli tilda ma'lumot berish</p>
	<p>Vaksinani ampula yoki flakondan shprintsiga aseptika qoidalariga rioya qilgan holda to'g'ri dozada tortib olish</p>
	<p>Vaksina turiga qarab turli xil in'eksiya texnikalarini standartlarga muvofiq va xavfsiz bajarish</p>
	<p>Emlashdan keyingi o'tkir allergik reaksiyalar belgilarini vizual aniqlash va shoshilinch yordam ko'rsatish</p>
	<p>Elektron axborot tizimlaridan foydalanish</p>
	<p>Bilimlar:</p>
	<p>O'zbekiston Respublikasining amaldagi Milliy emlash kalendari</p>
	<p>Vaksinalarni saqlash va tashish bo'yicha "Sovuqlik zanjiri" qoidalari va uning buzilish oqibatlari</p>
	<p>Aseptika va antiseptika qoidalari</p>
	<p>Har bir vakcina turi uchun qo'llash texnikasi va to'g'ri dozalari</p>
	<p>Vaksina turlari va ularning asosiy xususiyatlari</p>
	<p>Anafilaktik shokning belgilari va bunday holatda shoshilinch yordam ko'rsatish algoritmi</p>
	<p>"Shok aptechkasi" tarkibi, undagi dori vositalarining ta'siri va qo'llash dozalari</p>
	<p>Emlash oldidan bemordan rasmiy rozilik olish tartibi va fuqarolarning emlash bo'yicha huquqlari</p>
	<p>Birlamchi tibbiy hujjatlarni va elektron tizimini to'ldirish qoidalari</p>
	<p>Vaksinadan bosh tortish holatlarini rasmiylashtirish tartibi va ota-onalar bilan muloqot qilishning etik tamoyillari</p>
	<p>Mehnat harakatlari:</p>
	<p>1. "Salomatlik pasporti" va "xavf guruhleri" ro'yxatlaridan foydalanib, belgilangan yosh va xavf guruhidagi aholini aniq maqsadli ro'yxatini shakllantirish</p>

<p>B2.02.5 - Maqsadli guruhlarni onkologik, yurak-qon tomir kasalliklari va diabet skrininglariga faol jalb qilish va o'tkazishda ishtirok etish</p>	2. Ushbu ro'yxatdagi aholini skriningga faol chaqirish va ularga ushbu tekshiruvlarning maqsadi, ahamiyati va bepul o'tkazilishini tushuntirish
	3. Skrining o'tkazish uchun zarur jihozlarni va hujjatlarni tayyorlash hamda ishga sozligini tekshirish
	4. Hamshira vakolati doirasidagi skrining amaliyotlarini bajarish
	5. Olingan barcha skrining natijalarini belgilangan jurnallarga, ambulator kartaga va elektron axborot tizimiga aniq va o'z vaqtida qayd etish
	6. Tekshiruv natijalarida "me'yordan chetlashish" aniqlangan shaxslarni nazoratga olish, ularni umumiy amaliyot shifokoriga yoki mutaxassisga yo'naltirish
	Ko'nikmalar:
	Elektron bazadan murakkab filtrlar yordamida maqsadli ro'yxatlarni ajratib olish
	Aholini tekshiruvga kelishga ishontirish va motivatsiya berish bo'yicha muloqot qilish
	Skriningning maqsadini aholiga sodda va tushunarli tilda og'zaki tushuntirish
	Tibbiy asboblarni ishga tayyorlash va sozligini tekshirish
	Sarf materiallarining yaroqlilik muddatini tekshirish
	Antropometrik o'lchovlarni to'g'ri bajarish
	Tana vazni indeksini (TVI) hisoblash
	Qon bosimini tonometrda to'g'ri o'lchash
	Glyukometr yordamida kapillyar qondan qand miqdorini aniqlash
	Ginekologik skrininglarda shifokorga assistentlik qilish
	Olingan natijalarni tibbiy axborot tizimiga, jurnallarga va ambulator kartaga aniq, xatosiz va tushunarli qilib kiritish
	Tekshiruv natijasini belgilangan me'yorlar bilan solishtirish va "me'yordan chetlashish" holatini aniqlash
	Me'yordan chetlashish aniqlangan shaxsga keyingi qadamlarni aniq tushuntirish va unga yo'llanma rasmiylashtirish
	Bilimlar:
O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan aholini skrining qilish bo'yicha amaldagi normativ hujjatlar	
Ikkilamchi profilaktika va skrining tushunchalari, ularning kasalliklarni erta aniqlashdagi ahamiyati	
Ijtimoiy ahamiyatga ega kasalliklarning asosiy xavf omillari	
Qon bosimini o'lchash texnikasi va uning me'yoriy ko'rsatkichlari	

		Ekspress-glyukometriyani o'tkazish qoidalari va qondagi glyukoza ning me'yoriy ko'rsatkichlari
		Tana vazni indeksini (TVI) hisoblash formulasi va uning me'yoriy ko'rsatkichlari
		Ko'krak bezi saratoni skriningi haqida umumiy bilimlar
		Bachadon bo'yni saratoni skriningi maqsadi va o'tkazish davriyligi
		Aholini skriningga faol jalb qilish va motivatsiya berishning psixologik asoslari
		Skrining natijalarini ambulator kartalarga va elektron tizimlarga kiritish tartibi
		Me'yordan chetlashish aniqlangan shaxslarni keyingi bosqichga yo'naltirish algoritmi
	B2.03.5 - Surunkali kasalliklarga chalingan bemorlar uchun individual rejalarini tuzishda qatnashish va ularning o'z vaqtida ko'rikdan o'tishini nazorat qilish	Mehnat harakatlari:
		1. Dispanser nazoratidagi har bir bemor uchun umumiy amaliyot shifokori bilan birgalikda individual nazorat rejasini ishlab chiqishda ishtirok etish
		2. Bemorga tasdiqlangan individual nazorat rejasini, keyingi ko'rik sanasini va o'z-o'zini nazorat qilish usullarini tushuntirish
		3. Individual rejada belgilangan ko'rik sanasi yaqinlashganda bemor bilan faol aloqaga chiqish va uni ko'rikka chaqirish
		4. Bemorning shifokor ko'riklariga, laborator tahlillarga va mutaxassislar konsultatsiyalariga kelgan-kelmaganligini monitoring qilish
		5. Belgilangan muddatda ko'rikka kelmagan bemorlar bilan takroriy aloqa o'rnatish, sabablarini aniqlash va bu holat haqida umumiy amaliyot shifokorini xabardor qilish
		6. Individual rejada belgilangan barcha amallarning bajarilishi holatini ambulator kartaga va elektron axborot tizimiga kiritish
Ko'nikmalar:		
Elektron ambulator kartadan shifokorning "individual nazorat rejasini" varaqasini qidirib topish		
Bemor uchun keyingi ko'rik sanasi va zarur tahlillar ro'yxatini eslatma varaqasiga aniq ko'chirib yozish yoki kompyuterdan chop etish		
O'z-o'zini nazorat qilish uskunalarini ishlatishni amalda namoyish etish		
Elektron kalendar yoki MS Excel jadvaliga bemorning keyingi ko'rik sanasini kiritish va eslatma o'rnatish		
"Salomatlik pasporti" bazasidan bemorning telefon raqamini qidirib topish va u bilan telefon aloqasini o'rnatish		
Telefon qo'ng'irog'i natijasini maxsus jurnalga yoki elektron bazadagi "izoh" maydoniga qayd etish		

		Arxivdan bemorning oldingi tahlil natijalarini topish va joriy natijalar bilan solishtirish
		Bilimlar:
		Uchlamchi profilaktika va "Dispanser nazorati" tushunchalari, ularning surunkali kasalliklar asoratlarining oldini olishdagi ahamiyati
		Birlamchi bo'g'inda nazorat qilinadigan asosiy surunkali kasalliklar va ularning asosiy asoratlari
		Har bir surunkali kasallik uchun Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan klinik protokollar asosidagi individual nazorat rejasi
		Surunkali kasalliklarda "o'z-o'zini nazorat qilish" tamoyillari
		Surunkali bemorlar uchun parhez va jismoniy faollik bo'yicha asosiy tavsiyalar
		Bemorning holati yomonlashgandagi "xavf belgilari"
		Dispanser nazorati ma'lumotlarini ambulator kartaga va elektron axborot tizimiga kiritish tartibi
		Telefon orqali muloqot qilish etikasi va tibbiy ma'lumotlar maxfiyligini saqlash qoidalari
	Mas'uliyat mustaqillik:	1. Umumiy amaliyot shifokori va katta hamshira nazorati ostida, tasdiqlangan Milliy emlash kalendari, klinik protokollar va individual nazorat rejaları asosida ishlash mas'uliyati
		2. Bemorlarni skriningga yoki emlashga chaqirish, ularning kelishini nazorat qilish va individual rejaları kuzatib borish jarayonlarini tashkillashtirishda mustaqillik
		3. Immunoprofilaktika jarayonining to'liq xavfsizligi uchun javobgarlik
		4. O'tkazilgan barcha profilaktik muolajalar to'g'risidagi ma'lumotlarning tibbiy hujjatlarga va elektron axborot tizimlariga to'g'ri va o'z vaqtida kiritilishi bo'yicha mas'uliyat
		5. Skrining o'lchovlarining aniqligi uchun mas'uliyat
	Texnik va/yoki texnologik talab:	Sanitariya me'yorlariga javob beradigan ish xona, kushetka, lampa, tonometr, termometr, fonendoskop, qon va glyukoza o'lchagich asboblari, shpris va ignalar, infuzion tizimlar, "Anafilaktik shok aptechkasi" va birinchi yordam jihozlari, "sovuqlik zanjiri" uskunalari, sterilizatsiya va dezinfeksiya uchun asboblari va vositalari, spirt, tamponlar, bint, paxta, bir martalik qo'lqoplar, xalatlari, niqoblar, baxilalar, chiqindilar uchun xavfsiz konteynerlar, qo'l yuvish vositalari, internetga ulangan kompyuter, "Elektron poliklinika" va emlash.uz tizimlariga kirish huquqi hamda tasdiqlangan klinik protokollar to'plami.

Kasbning nomi:	Shoshilinch va yordamchi tibbiy xizmat hamshiralari	
Mashg'ulot nomining kodi:	32210	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	5	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar	Tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Sog'liqni saqlash muassasalarida kamida 1 yillik Umumiy hamshiralik faoliyati bo'yicha amaliyot yoki ish tajribasiga ega bo'lishi talab etiladi.	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	<p>Tibbiy ko'rikdan o'tgan va sog'lig'i kasbiy faoliyatni amalga oshirishga yaroqli bo'lishi. Yuqori darajadagi stressga chidamlilik. Kutilmagan, favqulodda va tartibsiz (xaotik) ish sharoitlarida bosiqlikni saqlash va samarali ishlash qobiliyati. Hayot uchun xavfli vaziyatlarda tezkor fikrlash, ma'lumotlarni bir zumda tahlil qilish va qaror qabul qilish qobiliyati. Harakatlarda aniqlik, chaqqonlik va yuqori diqqat-e'tibor. Jismoniy va yuqori hissiy zo'riqishlarga bardosh berish. Shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatuvchi jamoa bilan aniq, qisqa va tushunarli muloqot qila olish. Bemor holatining o'zgarishiga va ish ustuvorliklarining keskin o'zgarishiga tez moslasha olish.</p> <p>Bemorning ahvoli qanchalik og'ir bo'lmasin, kasbiy etika, bemor sha'ni va qadr-qimmatiga hurmat bilan yondashish.</p> <p>Tibbiy sir va bemor ma'lumotlarining maxfiyligini ta'minlash. Yangi shoshilinch yordam protokollari, jihozlari va texnologiyalarini doimiy o'rganishga va o'zlashtirishga intilish.</p>	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	o'rta maxsus professional ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	boshlang'ich professional ta'lim yoki o'rta professional ta'lim + norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	-	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	-	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	4	Tibbiy-mehnat ekspertiza hamshirasi
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
D1.5 - Shoshilinch holatlarni baholash va tibbiy saralash o'tkazish	D1.01.5 - Bemorning holatini zudlik bilan birlamchi baholash va hayotiy xavf darajasi bo'yicha tibbiy saralash o'tkazish	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Bemorning umumiy ahvolini, hushini, teri rangini va nafas olishini bir zumda vizual baholash
		2. Bemorning hayotiy muhim funksiyalarini "ABCDE" xalqaro standarti bo'yicha zudlik bilan tekshirish
		3. Birlamchi baholash natijalariga ko'ra, bemorning holatini tasdiqlangan tibbiy saralash tizimi bo'yicha tasniflash

	<p>4. Aniqlangan saralash kodi va bemorning birlamchi holati to'g'risida navbatchi shifokor va jamoaga darhol xabar berish</p>
	<p>5. Bemorga tegishli saralash belgisini biriktirish</p>
	<p>Ko'nikmalar:</p>
	<p>Nafas olish shovqinlarini eshitish va og'iz bo'shlig'ini yot jismlarga tezkor vizual tekshirish</p>
	<p>Ko'krak qafasi harakatini vizual kuzatish va bir daqiqadagi nafas olish sonini sanash</p>
	<p>Uyqu arteriyasida yoki bilak arteriyasida pulsni paypaslab topish va uning sonini sanash</p>
	<p>Kapilyar to'lishish vaqtini aniqlash</p>
	<p>Qon ketish o'choqlarini va jaroxatning aniq belgilarini vizual aniqlash</p>
	<p>Bemorning hush darajasini AVPU shkalasi bo'yicha tezkor baholash</p>
	<p>Ko'z qorachiqklarining holatini va ularning yorug'likka reaksiyasini fonar yordamida tekshirish</p>
	<p>Teri rangi va namligini vizual va palpator baholash</p>
	<p>Olingan barcha ma'lumotlarni tasdiqlangan tibbiy saralash shkalasi bilan solishtirish</p>
	<p>Shifokorga bemorning holati va saralash kodi haqida aniq, qisqa va lo'nda og'zaki ma'lumot berish</p>
	<p>Navbatchi jamoaga yoki shifokorga shoshilinch holat haqida aniq, qisqa va lo'nda og'zaki hisobot berish</p>
	<p>Bilimlar:</p>
	<p>"Tibbiy saralash" tushunchasi, uning maqsadlari va shoshilinch yordam bo'limida qo'llaniladigan tasdiqlangan modellari</p>
	<p>Shoshilinch holatlarda bemorni birlamchi baholashning xalqaro "ABCDE" standarti</p>
	<p>Hayotiy muhim funksiyalarning kattalar va bolalar uchun normal va kritik ko'rsatkichlari</p>
	<p>Hushdan ketish darajalarini baholash shkalalari, AVPU shkalasi</p>
	<p>Shokning asosiy belgilari va uning turlari haqida umumiy tushunchalar</p>
	<p>Hayot uchun xavfli bo'lgan asosiy holatlarning eng birinchi, tez aniqlanadigan belgilari</p>
	<p>Nafas yo'llari obstruksiyasining ovozli va vizual belgilari</p>
	<p>Shoshilinch tibbiy yordamda jamoaga ma'lumot uzatishning standart muloqot protokollari</p>
	<p>Mehnat harakatlari:</p>
	<p>1. Bemorning yoki uning yaqinlarining ishonchini qozonish va tinchlantirish orqali muloqot uchun qisqa vaqt ajratish</p>
	<p>2. Shoshilinch holat sababini tez aniqlash uchun maqsadli, aniq va qisqa savollar berish</p>

	D1.02.5 - Bemor yoki uning yaqinlaridan shoshilinch holat bo'yicha qisqa tibbiy anamnez yig'ish	3. Hayot uchun muhim ma'lumotlarni zudlik bilan aniqlashtirish
		4. Jarohat olgan bemorlarda jarohatlanish mexanizmini aniqlash
		5. Olingan barcha muhim ma'lumotlarni zudlik bilan shifokorga yetkazish
		6. Olingan birlamchi anamnez ma'lumotlarini bemorning shoshilinch kartasiga qisqa va aniq qilib qayd etish
		Ko'nikmalar:
		Stressli vaziyatda bemor va uning yaqinlari bilan ishonchli, tinchlantiruvchi og'zaki muloqot o'rnatish
		Bemorning yoki yaqinining gapini bo'lmasdan eshitish va asosiy ma'noni ajratish
		Holatga mos ravishda ochiq va yopiq savollarni tez va aniq shakllantirish
		Javoblardan asosiy shikoyatni ikkilamchi belgilardan ajratish
		Olingan ma'lumotlarni qisqa tibbiy terminlarga o'girish
		Olingan ma'lumotlarni shifokorga qisqa, aniq va lo'nda og'zaki hisobot shaklida yetkazish
		Bemorning so'zlaridan eng muhim ma'lumotlarni tibbiy kartaga tez, aniq va tushunarli qilib qayd etish
		Bilimlar:
		Shoshilinch tibbiyotda anamnez yig'ishning standartlari
		Eng ko'p uchraydigan hayotiy xavfli holatlar uchun maxsus "qizil bayroqcha" savollari
		Asosiy tibbiy terminologiya
		Eng ko'p uchraydigan dori guruhlari va allergik reaksiyalar haqida umumiy farmakologik asoslar
		Jarohatlanish mexanizmi tushunchasi va uning shoshilinch yordamdagi ahamiyati
	Shoshilinch vaziyatlarda bemor va uning yaqinlari bilan samarali muloqot qilishning psixologik asoslari	
	Anamnez ma'lumotlarini birlamchi tibbiy hujjatlarga qayd etish qoidalari	
	Tibbiy sir va bemor ma'lumotlarining maxfiyligini ta'minlash qoidalari	
	D1.03.5 - Bemorning holatini shoshilinch yordam kutish vaqtida qayta baholash va saralash kodini o'zgartirish	Mehnat harakatlari:
		1. "Sariq" yoki "yashil" zonadagi bemorlarning holatini belgilangan vaqt oralig'ida muntazam ravishda qayta ko'zdan kechirish
		2. Bemorning ahvoli yomonlashganiga shubha bo'lganda uning hayotiy ko'rsatkichlarini zudlik bilan qayta baholash
		3. Qayta baholash natijalariga ko'ra bemorning holati og'irlashganligi aniqlansa, uning tibbiy saralash kodini zudlik bilan o'zgartirish

		4. Holat o'zgarishi va yangi saralash kodi haqida navbatchi shifokor va jamoaga darhol xabar berish
		5. O'zgartirilgan saralash belgisini va vaqtini qayta rasmiylashtirish va bemorni zudlik bilan tegishli yordam zonasiga o'tkazish
		Ko'nikmalar:
		Kutish zalidagi bir necha bemorni bir vaqtning o'zida vizual kuzatib turish va notabiiy belgilarni sezish
		Bemorning joriy holatini uning birlamchi baholashdagi holati bilan tezkor taqqoslay olish
		Hayotiy ko'rsatkichlarni takroran tezkor baholash
		Qayta baholash natijalari asosida bemorning saralash kodini o'zgartirish haqida qaror qabul qilish
		Holatning og'irlashgani haqida jamoaga yoki shifokorga shoshilinch va aniq xabar berish
		Bilimlar:
		Qayta saralash tushunchasi va uning shoshilinch yordamdagi ahamiyati
		Turli saralash guruhlari uchun qayta baholashning standart vaqt oraliqlari
		Kutish zalidagi bemorlarda kuzatilishi mumkin bo'lgan ahvolning yomonlashuvi belgilari
		Saralash kodini o'zgartirish uchun asoslar
		Bemor holati o'zgartirishda jamoaga yoki shifokorga xabar berishning shoshilinch tartibi
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Bemorning holatini birlamchi baholashni mustaqil amalga oshirish va dastlabki saralash kodini belgilashda mustaqillik
		2. Bemorning holatini kutish vaqtida qayta baholash zarurati va vaqtini aniqlashda mustaqillik
		3. Bemorning saralash kodini o'zgartirishda mustaqillik shifokorni xabardor qilish sharti bilan
		4. O'tkazilgan birlamchi baholashning aniqligi, to'liqligi va o'z vaqtida bajarilishi uchun shaxsiy mas'uliyat
		5. Bemorga tayinlangan tibbiy saralash kodining to'g'riligi uchun to'liq javobgarlik
		6. Anamnez davomida olingan hayotiy muhim ma'lumotlarning to'g'ri yig'ilishi uchun mas'uliyat
		7. Baholash va saralash natijalari haqidagi ma'lumotlarning navbatchi shifokor va jamoaga o'z vaqtida va aniq yetkazilishi uchun mas'uliyat
		8. Barcha saralash harakatlari va natijalarining to'g'ri hujjatlashtirilishi uchun javobgarlik
		1. Nafas yo'llari o'tkazuvchanligini tiklash
		2. Nafas olishni ta'minlash uchun kislorod terapiyasini boshlash va Ambu qopchasi yordamida o'pkani sun'iy nafas oldirishni bajarish

D2.5 - Shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish va diagnostik muolajalarni bajarish	D2.01.5 - Bemorning hayotiy muhim funksiyalarini zudlik bilan tiklash va barqarorlashtirishga qaratilgan harakatlarni boshlash	3. To'satdan yurak to'xtashida yurak-o'pka reanimatsiyasini boshlash
		4. Defibrillyatorni tayyorlash va shifokor ko'rsatmasi bo'yicha defibrillyatsiyani amalga oshirishda ishtirok etish
		5. Tashqi qon ketishini zudlik bilan to'xtatish
		6. Bemorning ahvolini barqarorlashtirish uchun uni shok holatiga qarshi holatga keltirish
		Ko'nikmalar:
		Bemorga "boshni orqaga egish va jag'ni ko'tarish" usulini qo'llash
		Tibbiy aspiratorni ishlatish va og'iz bo'shlig'ini suyuqlik va yot jismlardan tozalash
		To'g'ri o'lchamdagi havo o'tkazgichni tanlash va uni og'iz bo'shlig'iga kiritish
		Kislorod niqobini to'g'ri joylashtirish va kislorod oqimi tezligini o'rnatish
		Niqobni germetik ushlab va ko'krak qafasi ko'tarilishini ta'minlash
		Yurak-o'pka reanimatsiyasi standartiga muvofiq ko'krak qafasini siqish texnikasini bajarish
		Defibrillyatorni ishga tushirish, elektrodni bemorning ko'kragiga to'g'ri joylashtirish va shifokor ko'rsatmasi bo'yicha zaryad berish
		Ochiq qon ketish o'chog'iga bosuvchi bog'lam qo'yish Jgut qo'llash texnikasi bajarish
		Bemor yotgan zambil yordamida uni shokka qarshi Trendelenburg holatiga keltirish
		Bilimlar:
		Kattalar va bolalarda yurak-o'pka reanimatsiyasi bo'yicha xalqaro va milliy standartlar
		"ABCDE" standarti bo'yicha nafas yo'llari, nafas olish va qon aylanishining buzilishi belgilari va sabablari
		Nafas yo'llari obstruksiyasining belgilari va uni bartaraf etish usullari
		Kislorod terapiyasining asoslari, kislorodni qo'llashga ko'rsatmalar, niqob va kanulalar turlari
		Defibrillyatsiya tushunchasi, yurakning qaysi ritmlarida qo'llanilishi va uning ishlash prinsipi
Shokning asosiy turlari va ularning birlamchi belgilari		
Shokka qarshi Trendelenburg holatiga ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalar		
Tashqi qon ketishini to'xtatish algoritmi, bosuvchi bog'lam va jgut qo'llashning aniq qoidalari		
Shoshilinch yordam ko'rsatishda jamoaviy ishlash tamoyillari		

	D2.02.5 - Shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish uchun asbob-uskunalar, jihozlar va dori vositalarini tayyorlash	Mehnat harakatlari:
		1. Reanimatsiya/shoshilinch yordam aravachasidagi barcha dori vositalari, asbob-uskunalar va sarflov materiallarining ro'yxat bo'yicha mavjudligini har smena boshida tekshirish
		2. Barcha dori vositalari va steril materiallarning yaroqlilik muddatlarini muntazam tekshirish va muddati o'tganlarini almashtirish
		3. Shoshilinch yordam jihozlarini doimiy ishga shay holatda saqlash
		4. Shoshilinch muolajalar uchun zarur bo'lgan steril to'plamlarni tayyorlash va ularning mavjudligini ta'minlash
		5. Kislorod ballonlari yoki markazlashgan kislorod tizimining bosimini va yetarliligini tekshirish
		6. Shoshilinch holat e'lon qilinishi bilan, kutilayotgan bemor holatiga mos keladigan maxsus jihozlar va dori vositalarini zudlik bilan tayyorlash
		Ko'nikmalar:
		Dori vositalari, steril naborlar va jihozlardagi yaroqlilik muddatini o'qish
		Tibbiy jihozlarning ishga shayligini tekshirish va ulardan foydalanish
		Reanimatsiya aravachasidagi dori va buyumlarni tasdiqlangan ro'yxat bo'yicha solishtirish
		Yetishmayotgan yoki muddati o'tgan dori/buyumlarni o'z vaqtida almashtirish
		Kislorod ballonidagi bosim o'lchagich ko'rsatkichlarini o'qish
		Shoshilinch muolajalar uchun to'plamlarni jamlash
		Dori vositalarini va jihozlarni reanimatsiya aravachasida belgilangan joylashuv qoidalariga rioya qilgan holda tartibga solish
		Bemor holatiga mos keladigan jihozlar va dori to'plamlarini tezkorlik bilan ajratib olish va tayyorlash
		Bilimlar:
		Shoshilinch yordam bo'limi reanimatsiya aravachasining tasdiqlangan standart ro'yxati va undagi jihozlarning joylashuv tartibi
		Shoshilinch yordamda qo'llaniladigan asosiy dori vositalarining nomlari, ularning asosiy ta'siri va nima uchun kerakligi
		Defibrilyator, EKG apparati, aspirator va bemor monitorining ishlash prinsiplari va ularning ishga shayligini tekshirish algoritmi
Dori vositalari va steril tibbiy buyumlarni saqlash qoidalari va yaroqlilik muddatini tekshirish tartibi		

		Kislorod ballonlari bilan ishlash xavfsizlik texnikasi va manometr ko'rsatkichlari
		Asosiy shoshilinch holatlar uchun birinchi navbatda kerak bo'ladigan maxsus jihozlar va dori to'plamlari tarkibi
		Aseptika va antiseptika qoidalari
	D2.03.5 - Shifokor ko'rsatmasi bo'yicha shoshilinch diagnostik muolajalarni bajarish	Mehnat harakatlari:
		1. Zudlik bilan EKG apparatini tayyorlash, elektrodلarni bemorning ko'krak qafasi va qo'l-oyoqlariga to'g'ri joylashtirish va yozuvini qayd etish
		2. Qonda qand miqdorini aniqlash uchun glyukometr yordamida ekspress-test o'tkazish
		3. Shifokor ko'rsatmasiga binoan shoshilinch laborator tahlillari uchun vena qon tomiridan namunalarni olish
		4. Olingan barcha namunalarni tegishli probirkalarga joylashtirish, bemor ma'lumotlari bilan to'g'ri markirovka qilish va laboratoriyaga shoshilinch tartibda yuborish
		5. Olingan diagnostika natijalarini зудlik bilan shifokorga taqdim etish
		6. Shifokorga boshqa diagnostik muolajalarni bajarishda assistentlik qilish
		Ko'nikmalar:
		EKG apparatini ishga tushirish
		EKG elektrodلarini ko'krak qafasi va qo'l-oyoqlarga standart sxema bo'yicha to'g'ri joylashtirish
		EKG ko'rsatkichlarini talqin qilish va tushinish
		Glyukometrda ekspress-test o'tkazish texnikasi qo'llash
		Periferik vena qon tomirini topish
		Turli xil vakuumli probirkalarga qon namunalarni to'g'ri ketma-ketlikda olish
		Olingan namuna probirkalariga markirovka qilish
		Laboratoriya tahlillari uchun yo'llanma to'ldirish
		Shoshilinch diagnostik jihozlarni tayyorlash
		Olingan EKG lentasi yoki glyukometr ko'rsatkichini shifokorga og'zaki ravishda aniq ayta olish
		Bilimlar:
		EKG yozish standartlari 12 tarmoqli EKG elektrodلarni joylashtirishning aniq anatomik nuqtalari
		Hayot uchun xavfli bo'lgan asosiy EKG o'zgarishlarining vizual belgilari
	Qondagi glyukoza miqdorining normal va kritik ko'rsatkichlari	
	Qon olish texnikasi va asosiy venalarning joylashuvi	
	Aseptika va antiseptika qoidalari	
	Laborator tahlillar uchun mo'ljallangan vakuumli probirkalarning turlari va ularning qaysi tahlil uchun mo'ljallanganligi	

		Qon namunalarini markirovka qilish va laboratoriyaga yuborishning qat'iy qoidalari
		Shoshilinch diagnostika natijalarini shifokorga xabar berish tartibi
D2.04.5 - Shifokor ko'rsatmasi bo'yicha shoshilinch davolash muolajalarini bajarish		Mehnat harakatlari:
		1. Shifokorning og'zaki yoki yozma ko'rsatmasini qabul qilish, aniqlashtirish va zarurat bo'lsa, qayta so'rab tasdiqlash
		2. Buyurilgan dori vositasini tayyorlash
		3. Dori vositalarini shifokor belgilagan usulda xavfsiz va aniq yuborish
		4. Shoshilinch infuzion terapiya uchun periferik vena kateterini o'rnatish va infuzion tizimni ulash hamda sozlash
		5. Kiritilgan dori vositalarining nomini, dozasini, vaqtini va yuborish yo'lini bemorning kuzatuv varaqasiga qayd etish
		6. Dori yuborilgandan so'ng bemorning ahvolidagi o'zgarishlarni kuzatish va bu haqda shifokorga xabar berish
		7. Shifokorga boshqa davolash muolajalarini bajarishda assistentlik qilish
		Ko'nikmalar:
		Dori dozasini hisoblash
		Ampulalarni xavfsiz ochish va dori vositalarini shpritsga aseptika qoidalariga rioya qilgan holda tortib olish
		Infuzion eritmaga dori vositasini steril qo'shish
		Periferik vena kateterini o'rnatish texnikasi qo'llash
		Infuzion tizimni tayyorlash va uni kateterga to'g'ri ulash
		Infuzion tizimning tomchi tezligini hisoblay olish va o'rnata olish
		Vena ichiga oqim bilan dori vositasini sekin yuborish texnikasini qo'llash
		Mushak orasiga va teri ostiga in'eksiya qilish texnikalarini bajarish
		Dori yuborilgandan so'ng bemorda allergik reaksiyaning birlamchi belgilarini vizual aniqlash
		Bemorning hayotiy ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlarni kuzatish va aniqlash
		Kiritilgan dori-darmonlar va bajarilgan muolajalarni kuzatuv varaqasiga aniq va tushunarli qilib kiritish
	Bilimlar:	
	Aseptika va antiseptika qoidalari	
	Shoshilinch yordamda eng ko'p qo'llaniladigan dori vositalarining nomlari, guruhlari, asosiy ta'siri, standart dozalari va yuborish yo'llari	

		Dori vositalarini qo'llashga qarshi ko'rsatmalar va ularning asosiy nojo'ya ta'sirlari
		Dori vositalari dozasini hisoblash qoidalari va eritmalarni suyultirish standartlari
		Kateter turlari, o'lchamlari va ularni o'rnatish algoritmi
		Asosiy infuzion eritmalar (NaCl 0.9%, Ringer, Glyukoza 5%) va ularning maqsadi, infuziya tezligini hisoblash formulasi
		Dori vositalarini yuborish yo'llari va har bir usulning o'ziga xos xususiyatlari
		Dori vositalarining o'zaro nomutanosibligi
		Shoshilinch muolajalar algoritmlari va ularga ko'rsatma/qarshi ko'rsatmalar
		Bajarilgan muolajalar va kiritilgan dori-darmonlarni yuridik ahamiyatga ega hujjatlarga qayd etish qoidalari
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Shoshilinch tibbiy yordam jihozlari, asbob-uskunalar va dori vositalarining doimiy jangovar shayligi, yaroqlilik muddatlari va ro'yxat bo'yicha mavjudligi uchun shaxsiy mas'uliyat
		2. Shifokor ko'rsatmasi bo'yicha barcha shoshilinch diagnostik muolajalarni aniq, xavfsiz va tezkor bajarish uchun javobgarlik
		3. Reanimatsion harakatlar davomida aseptika va antiseptika qoidalariga to'liq rioya qilinishi uchun mas'uliyat
		4. Olingan diagnostik namunalarning to'g'ri markirovka qilinishi va laboratoriyaga yuborilishi uchun javobgarlik
		5. Olingan diagnostik natijalarning aniqligi va ularning shifokorga o'z vaqtida yetkazilishi uchun mas'uliyat
		6. Jihozlar ishlamay qolishi yoki dori-darmonlar yetishmasligi kabi muammolarni o'z vaqtida aniqlash va bu haqda rahbariyatga xabar berish uchun javobgarlik
		7. Barcha bajarilgan shoshilinch harakatlar va diagnostik muolajalarning to'g'ri hujjatlashtirilishi uchun mas'uliyat
D3.5 - Bemorning hayotiy ko'rsatkichlarini intensiv kuzatish va parvarish qilish	D3.01.5 - Bemorning hayotiy muhim ko'rsatkichlarini apparatlar yordamida uzluksiz kuzatish	Mehnat harakatlari:
		1. Bemorni kardiomonitorga ulash
		2. Monitor sozlamalarida bemorning yoshiga va holatiga mos keladigan "Ogohlantirish" signallarining yuqori va quyi chegaralarini o'rnatish
		3. Bemorning hayotiy muhim ko'rsatkichlarini monitor ekranida kuzatib borish
		4. Apparatning "Ogohlantirish" signallariga zudlik bilan reaksiya bildirish
		5. Bemorning ahvolini vizual kuzatish
		6. Jihozning nosozligini bartaraf etish yoki bemor holati yomonlashgani haqida shifokorga darhol xabar berish

	<p>7. Monitor ko'rsatkichlarini belgilangan vaqt oralig'ida bemorning kuzatuv varaqasiga aniq qayd etish</p> <p>8. Monitoring natijalaridagi salbiy o'zgarishlar haqida shifokorni xabardor qilish</p> <p>Ko'nikmalar:</p> <p>Kardiomonitorni ishga tushirish</p> <p>Kardiomonitorning asosiy menyusidan foydalanish</p> <p>EKG elektrodlarini, pulsoksimetr datchigini va qon bosimi manjetini bemorga to'g'ri o'rnatish</p> <p>Monitor ekranidagi "Ogohlantirish" signallarining yuqori va quyi chegaralarini o'rnatish</p> <p>Monitor ekranidagi barcha raqamli ko'rsatkichlarni va EKG egri chizig'ini o'qish</p> <p>Monitoring signallaridagi artefaktlarni haqiqiy biologik signallardan ajratish</p> <p>Jihozdagi texnik xatoliklarni mustaqil bartaraf etish</p> <p>Monitor ekranidagi ko'rsatkichlarning salbiy tendensiyasini shifokorga og'zaki ravishda aniq yetkazish</p> <p>Bilimlar:</p> <p>Hayotiy muhim funksiyalarning va qondagi kislorod saturatsiyasining normal va kritik ko'rsatkichlari</p> <p>Kardiomonitorning ishlash prinsiplari</p> <p>EKG asoslari</p> <p>Hayot uchun eng xavfli aritmiyalarning monitor ekranidagi asosiy vizual belgilari bo'yicha umumiy bilimlar</p> <p>Pulsoksimetriya asoslari</p> <p>Monitor signallarining ustuvorligi va har bir signal nima uchun ishlayotgani bo'yicha bilimlar</p> <p>Monitoringdagi texnik xatoliklarning asosiy sabablari</p> <p>Kuzatuv varaqasini yuritish va monitoring ko'rsatkichlarini qayd etish tartibi</p>
D3.02.5 - Intensiv terapiya bo'limidagi bemorga maxsus parvarish amaliyotlarini bajarish	<p>Mehnat harakatlari:</p> <p>1. Bemorning tana holatini yotoq yarasi profilaktikasi uchun o'zgartirish va maxsus yostiqlar yordamida joylashtirish</p> <p>2. Yotoq yarasi xavfi bor joylarni infeksiya va shikastlanish belgilariga vizual tekshirish va baholash</p> <p>3. Endotraxeal yoki traxeostomik naycha orqali bronxial sekresiyalarni aspiratsiya qilish</p> <p>4. Og'iz bo'shlig'ini maxsus eritmalar va shimgichlar yordamida tozalash va parvarish qilish</p> <p>5. Bemorning tanasini to'shakda yuvintirish va gigiyenik artish</p> <p>6. Og'ir ahvoldagi bemorning choyshablari va kiyimlarini almashtirish</p>

		7. Siydik qopini bo'shatish va ajralayotgan siydik miqdori hamda rangini baholash
		8. Shifokor ko'rsatmasiga binoan kateterlarning o'tkazuvchanligini fiziologik eritma bilan yuvib tekshirish
		9. Shifokor ko'rsatmasiga binoan nazogastral zondni kiritish va uning joylashuvini tekshirish
		10. Bemor qabul qilgan va chiqargan suyuqliklar balansini hisoblash va qayd etish
		11. Hushsiz bemorga muolajani boshlashdan oldin muolaja to'g'risida og'zaki tushuntirish
		Ko'nikmalar:
		Bemor holatini repozitsiyalash
		Yotoq yarasi erta belgilarini vizual baholash
		Endotraxeal/traxeostomik naychalardan foydalanib aspiratsiya qilish
		Og'iz bo'shlig'i va ko'zlarni gigiyenik parvarishlash
		Og'ir bemorning choyshablarini almashtirish
		Markaziy vena kateteri bog'lamini almashtirish
		Soatlik/kunlik diurez monitoringlash
		Kateterlar o'tkazuvchanligini tekshirish
		Nazogastral zondni kiritish
		Nazogastral zond joylashuvini verifikatsiya qilish
		Suyuqlik balansini arifmetik hisoblash
		Parvarish amaliyotlari va natijalarini hujjatlashtirish
		Bilimlar:
		Yotoq yaralarining rivojlanish sabablari, xavf omillari va bemorni repozitsiyalash standartlari
		Og'ir bemorlarni parvarish qilishda aseptika va antiseptika qoidalari
		Aspiratsiya qilish texnikasi, ko'rsatmalari va asoratlari
		Og'iz bo'shlig'i va endotraxeal/traxeostomik naychani parvarish qilish protokollari
		Bog'lamlarni almashtirish standartlari
		Nazogastral zondni kiritish usullari va uning joylashuvini tekshirish usullari
		Qabul qilingan va chiqarilgan suyuqliklarni hisoblash metodikasi va uning ahamiyati
	Mas'uliyat mustaqillik: va	1. Bemorning hayotiy ko'rsatkichlarini apparatlar yordamida mustaqil va uzluksiz kuzatishda mustaqillik
		2. Tasdiqlangan parvarish rejasiga muvofiq maxsus parvarish amaliyotlarini bajarishda mustaqillik
		3. Bemor holatidagi har qanday salbiy o'zgarishni aniqlash va bu haqda shifokorni zudlik bilan xabardor qilish uchun shaxsiy mas'uliyat
		4. Bemorning kuzatuv varaqasiga kiritilayotgan barcha monitoring ko'rsatkichlarining aniqligi va o'z vaqtida qayd etilishi uchun mas'uliyat

		5. Maxsus parvarish amaliyotlarini bajarishda aseptika, antiseptika va xavfsizlik qoidalariga to'liq rioya qilish uchun mas'uliyat
		6. Barcha kuzatuv va parvarish harakatlarining to'liq va aniq hujjatlashtirilishi uchun mas'uliyat
Texnik va/yoki texnologik talab	Funksional tibbiy krovat, yotoq yaralariga qarshi matras, bemor yonidagi ko'p funksiyali kardiomonitor, markazlashgan kislorod manbai, tibbiy aspirator, steril aspiratsion kateterlar, nazogastral zondlar, siydik kateterlari va o'lchov shkalali siydik yig'ish qoplari, bemor gigiyenasi uchun to'plamlar, steril va nosteril qo'lqoplar, niqoblar, xalatlar, suyuqlik balansini o'lchash uchun idishlar, shpritslar va infuzion tizimlar, steril bog'lam materiallari, dezinfeksiya vositalari, tibbiy chiqindilar uchun xavfsiz konteynerlar, qo'l yuvish vositalari, tasdiqlangan parvarish protokollari to'plami.	

Kasbning nomi:	Umumiy amaliyot tibbiyot hamshirasi	
Mashg'ulot nomining kodi:	32210	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	5	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar	Tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun sog'liqni saqlash muassasalarida kamida 1 yillik amaliyot yoki ish tajribasiga ega bo'lishi tavsiya etiladi	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	<p>Tibbiy ko'rikdan o'tgan va sog'lig'i kasbiy faoliyatni amalga oshirishga yaroqli bo'lishi.</p> <p>Belgilangan talablar va muddatlarga rioya qilgan holda ish jarayonlarini sifatli hamda xavfsiz amalga oshirish.</p> <p>Texnik va tashkiliy masalalarni tezkor hamda me'yoriy hujjatlar asosida hal etish.</p> <p>Yangi texnologiyalar, ilg'or usullar va zamonaviy tibbiy yo'nalishlarni o'zlashtirishga intilish.</p> <p>Bemorlar va hamkasblar bilan kasbiy muloqot madaniyatiga rioya qilish.</p> <p>Jamoaviy ishda faol ishtirok etish, o'zaro hurmat va samarali hamkorlik muhitini saqlash.</p> <p>Muammolarni tahlil qilish va samarali yechim topish qobiliyatini namoyon etish.</p> <p>Axborot maxfiyligini ta'minlash va tibbiy sirni saqlash.</p> <p>Faoliyatda aniqlik, diqqat va mas'uliyatni ta'minlash.</p> <p>Kasbiy etika va deontologiya qoidalariga qat'iy rioya qilish.</p> <p>Malakasini doimiy ravishda oshirish va amaliyotda qo'llash.</p> <p>Shoshilinch holatlarda bosiqlik va tezkor qaror qabul qilish.</p>	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	o'rta maxsus professional ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	boshlang'ich professional ta'lim yoki o'rta professional ta'lim + norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	-	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	-	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	4	Tibbiy-mehnat ekspertiza hamshirasi
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
	O'qitish natijalari	
	Mehnat harakatlari:	
	1. Biriktirilgan aholi kontingentini aniqlash va ro'yxatga olish	

E1.5 - Birlamchi tibbiy yordam ko'rsatish va profilaktik ishlarini amalga oshirish	E1.01.5 - Biriktirilgan aholi salomatligini kuzatish va tibbiy ko'rikka tayyorgarlik ko'rishda ishtirok etish	2. Kuzatuvga olingan shaxslar bo'yicha tibbiy ma'lumotlar bazasini yangilash va tekshirish
		3. Tibbiy ko'rikdan o'tish uchun chaqiruv varaqalarini tayyorlash va yetkazish
		4. Tibbiy ko'rik jadvalini shifokor bilan kelishish va tashkil etish
		5. Ko'rikka kelgan shaxslarni qabul qilish, zarur hollarda avvalgi tekshiruv natijalari bilan taqqoslash
		6. Ko'rikdan keyin natijalarni qayd etish va shifokorga taqdim etish
		7. Kuzatuv natijalari bo'yicha ma'lumotlarni umumlashtirish va hisobot shakllarini to'ldirish
		Ko'nikmalar:
		Biriktirilgan hudud bo'yicha aholi ma'lumotlarini yig'ish
		Kontingentni yosh, jins va kasb bo'yicha guruhlashtirish
		Elektron yoki qog'oz shaklida ro'yxatni tuzish va yangilash
		Ma'lumotlar bazasi bilan ishlash
		Chaqiruv varaqalarini elektron va qog'oz shaklda to'ldirish
		Ko'rik jadvalini tayyorlash va kalendar bo'yicha muvofiqlashtirish
		Bemorlarni qabul qilish va ro'yxatga olish
		Ilgari o'tkazilgan tekshiruv natijalarini yangi ma'lumotlar bilan taqqoslash
		Ko'rik natijalarini qayd etish va tibbiy hujjatlarga kiritish
		Shifokor uchun natijalarni tizimli shaklda taqdim etish
		Tibbiy ma'lumotlarni maxfiy saqlash va himoya qilish
		Bilimlar:
		Biriktirilgan aholi kontingentini aniqlash va kuzatish bo'yicha sog'liqni saqlash tizimidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar
		Birlamchi tibbiy yordam tizimida aholi bilan ishlashning tashkiliy asoslari va kuzatuv ishlarini olib borish tartibi
		Tibbiy ko'riklarni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha yo'riqnomalar, jadval tuzish va chaqiruv tartibini rejalashtirish qoidalari
		Tibbiy ma'lumotlar bazasi bilan ishlash asoslari
		Sanitariya-gigiyena talablari va ko'rik jarayonidagi infeksiya nazorati qoidalari
		Tibbiy hujjatlarni to'ldirish va hisobot shakllarini yuritish tartibi
		Axborot xavfsizligi va tibbiy ma'lumotlarni maxfiy saqlash bo'yicha qonunchilik asoslari
		Bemorlar bilan muloqot qilish madaniyati, tibbiy etika va deontologiya qoidalari
Mehnat harakatlari:		
1. Emlash tadbirlariga jalb etiladigan aholining yosh va kontingent guruhlarini aniqlash va ro'yxatni shakllantirish		

E1.02.5 - Emlash va kasalliklarning oldini olish bo'yicha sanitariya-ma'rifiy ishlar olib borish	2. Emlash va profilaktika mavzusida sanitariya-ma'rifiy materiallar (plakatlar, bukletlar, taqdimotlar)ni tayyorlash
	3. Emlash o'tkaziladigan vaqt, joy va sharoit haqida aholini xabardor qilish
	4. Aholi bilan suhbatlar, ochiq darslar va profilaktika bo'yicha guruhli uchrashuvlar tashkil etish
	5. Emlashning ahamiyati, usuli va xavfsizligi bo'yicha tushuntirish ishlarini amalga oshirish
	6. Emlangan shaxslar haqidagi ma'lumotlarni tibbiy hujjatlarga kiritish va ma'lumotlar bazasini yangilash
	7. Emlash jarayonida sanitariya-gigiyena va infeksiya nazorati qoidalariga rioya etilishini ta'minlash
	8. Sanitariya-ma'rifiy ishlar samaradorligini baholash va natijalar bo'yicha shifokorga hisobot taqdim etish
	Ko'nikmalar:
	Emlash tadbirlari uchun aholi kontingenti haqidagi ma'lumotlarni tahlil qilish va guruhlash usullaridan foydalanish
	Epidemiologik tavsiyalar asosida emlash rejasi va jadvalini tuzish
	Sanitariya-ma'rifiy materiallarni dizayn, matn va vizual jihatdan jozibali shaklda tayyorlash
	Emlash haqidagi ma'lumotni yosh, saviya va madaniy omillarni inobatga olgan holda tushuntirish
	Emlash jarayonida aseptika va antiseptika usullarini qo'llash
	Axborotni tahlil qilish va sanitariya-ma'rifiy tadbirlarning samaradorligini baholash
	Jamoa bilan ishlashda yetakchilik va mas'uliyat ko'nikmalarini namoyon etish
	Axborot maxfiylikni ta'minlash va tibbiy ma'lumotlar bilan ishlashda qonunchilik talablariga rioya qilish
	Bilimlar:
	Emlash ishlarini tashkil etish bo'yicha milliy qonunchilik va me'yoriy-huquqiy hujjatlar
	Milliy emlash kalendarlari va har bir vaktsina bo'yicha tavsiya etilgan yosh, dozalar va intervallar
	Epidemiologiya, immunologiya va infeksiyaning oldini olish bo'yicha asosiy tushunchalar
	Sanitariya-ma'rifiy ishlarni rejalashtirish va aholiga yo'naltirish tamoyillari
Axborotni aholiga yetkazishda muloqot va pedagogik psixologiya asoslari	
Emlashda aseptika, antiseptika va infeksiya nazorati qoidalari	
Emlash jarayonida ehtimoliy asoratlar va ularning oldini olish choralari	

		Tibbiy hujjatlar, hisobot va ma'lumotlar bazasi bilan ishlash tartibi
		Axborot maxfiylikni ta'minlash va tibbiy ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha qonunchilik asoslari
		Sanitariya-ma'rifiy ishlar samaradorligini baholash mezonlari va tahlil usullari
		Aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish strategiyalari va axborot texnologiyalaridan foydalanish usullari
E1.03.5 - Profilaktik ko'riklar natijalari bo'yicha ma'lumotlarni yuritish va shifokorga taqdim etish		Mehnat harakatlari:
		1. Profilaktik ko'rikdan o'tgan shaxslar bo'yicha ma'lumotlarni yig'ish va tizimlashtirish
		2. Ko'rik natijalarini tibbiy hujjatlar (ambulatoriya karta, yozuv varaqalari)ga kiritish
		3. Aniqlangan kasalliklar va xavf omillari bo'yicha ma'lumotlarni guruhlash va tahlil qilish
		4. Ko'rik natijalari asosida dispanser kuzatuviga muhtoj shaxslar ro'yxatini shakllantirish
		5. Natijalarni shifokorga yozma va elektron shaklda taqdim etish
		Ko'nikmalar:
		Ma'lumotlarni saralash, filtrlash va tizimli shaklda jamlash uchun axborot texnologiyalaridan foydalanish
		Tibbiy hujjatlarni (ambulatoriya karta, yozuv varaqalari)ni to'ldirishda me'yoriy talablarga amal qilish
		Ko'rik natijalarida aniqlangan kasalliklar va xavf omillarini tahlil qilishda statistik usullardan foydalanish
		Ma'lumotlarni taqdim etishda aniqlik, maxfiylik va tibbiy etikaga rioya qilish
		Ko'rik natijalari bo'yicha shifokor uchun yozma ma'lumotnoma va elektron hisobot tayyorlash
		Bilimlar:
		Profilaktik ko'riklarni tashkil etish va o'tkazish tartibini belgilovchi milliy me'yoriy-huquqiy hujjatlar
		Birlamchi tibbiy yordam tizimida ma'lumotlarni yig'ish, saqlash va qayta ishlash qoidalari
		Ambulatoriya va dispanser hujjatlarini yuritish qoidalari
		Tibbiy ma'lumotlarni kiritish va saqlash bo'yicha axborot tizimlari bilan ishlash asoslari
		Ko'rik natijalarida aniqlangan kasalliklar va xavf omillarini baholash mezonlari
		Dispanser kuzatuviga olish belgilari va baholash algoritmlari
		Ma'lumotlar bilan ishlashda statistik va tahliliy usullar
	Shifokor uchun hisobot tayyorlash va ma'lumotlarni taqdim etish qoidalari	
	Tibbiy ma'lumotlar maxfiylikni ta'minlash va axborot xavfsizligi talablari	

		Tibbiy etika va deontologiya qoidalarini, jamoaviy ish va muloqot madaniyati asoslari
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. O'z harakatlari, ish natijalari uchun javobgarlik 2. Zarur bo'lganda, muammolarni hal qilish uchun mustaqil qarorlar qabul qilish
E2.5 - Bemorlarga tibbiy yordam ko'rsatish va parvarish ishlarini amalga oshirish	E2.01.5 - Ambulatoriya va uy sharoitida shifokor ko'rsatmasiga muvofiq tibbiy manipulyatsiyalar bajarish	Mehnat harakatlari:
		1. Manipulyatsiya uchun zarur asbob-uskunalar, dori vositalari va sarf materiallarini tayyorlash
		2. Manipulyatsiyani o'tkazish uchun bemorni ruhiy va jismoniy jihatdan tayyorlash
		3. Aseptika va antiseptika talablariga rioya qilgan holda tibbiy manipulyatsiyani amalga oshirish
		4. Manipulyatsiya jarayonida bemorning holatini kuzatish va o'zgarishlarni qayd etish
		5. Manipulyatsiya yakunlangandan keyin ish joyini dezinfeksiya qilish va asboblarni sterilizatsiyaga tayyorlash
		6. Manipulyatsiya natijalarini tibbiy hujjatlarga kiritish va shifokorga taqdim etish
		Ko'nikmalar:
		Inyeksiya, infuziya, bintlash, kateter qo'yish, tana harorati va arterial bosimni o'lchash kabi amaliyotlarni bajarish
		Tibbiy asbob-uskunalar va dori vositalari bilan ishlashda xavfsizlik choralarini qo'llash
		Manipulyatsiya vaqtida bemorning holatini vizual va instrumental nazorat qilish
		Manipulyatsiyadan keyin asboblarni tozalash, dezinfeksiya va sterilizatsiyaga tayyorlash
		Manipulyatsiya natijalarini tibbiy hujjatlarga to'g'ri va aniq kiritish
		Manipulyatsiya vaqtida bemor holatini kuzatish va asoratlar yuz berganda tezkor chora ko'rish
		Bilimlar:
		Inyeksiya va infuziya usullarining turlari, ularni qo'llash ko'rsatmalari va qarshi ko'rsatmalar
		Aseptika va antiseptika tamoyillari, ish joyini tayyorlash qoidalarini
		Teri, mushak va vena anatomiyasini tuzilishi
		Dori vositalarining dozasi, qo'llanish usuli, saqlash shartlari va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan reaksiyalar
		Kateterizatsiya usullari
Bintlash, yara parvarishi va qon ketishni to'xtatish usullari		
Tana haroratini, arterial bosimni va nafas chastotasini aniq o'lchash usullari		
Tibbiy asbob-uskunalarining ishlash prinsiplari, ularni tozalash va dezinfeksiya qilish tartibi		
Tibbiy hujjatlarni to'g'ri to'ldirish va manipulyatsiya natijalarini yozma ravishda qayd etish tartibi		

		Manipulyatsiya jarayonida yuz berishi mumkin bo'lgan asoratlarni aniqlash va ularga tezkor yordam ko'rsatish tamoyillari
	E2.02.5 - Bemor holatini kuzatish, hayotiy ko'rsatkichlarni qayd etish va o'zgarishlar haqida shifokorni xabardor qilish	Mehnat harakatlari:
		1. Bemor holatini kuzatish uchun kerakli asbob-uskunalarni tayyorlash
		2. Bemorning tashqi ko'rinishi va umumiy holatini vizual baholash
		3. Harorat, nafas olish chastotasi, yurak urishi, arterial bosim va diurez kabi hayotiy ko'rsatkichlarni o'lchash
		4. O'lchangan ko'rsatkichlarni tibbiy hujjatga to'g'ri va aniq qayd etish
		5. Ko'rsatkichlardagi o'zgarishlarni tahlil qilish va shubhali holatlarni aniqlash
		6. Bemor holatidagi keskin o'zgarishlar haqida shifokorni o'z vaqtida xabardor qilish
		7. Kuzatuv natijalarini umumlashtirish va shifokor uchun hisobot tayyorlash
		Ko'nikmalar:
		Bemorning tashqi belgilari (rang, nafas olish, teri holati)ni vizual baholash usullarini qo'llash
		Haroratni termometr, bosimni tonometr, pulsni palpatsiya yoki monitor orqali o'lchash
		Hisoblangan va o'lchangan ko'rsatkichlarni tibbiy hujjatlarga qayd etish
		Hayotiy ko'rsatkichlardagi dinamik o'zgarishlarni taqqoslab tahlil qilish
		Bemor holatidagi keskin o'zgarishlarni aniqlash va tezkor chora ko'rish
		Kuzatuv ma'lumotlarini umumlashtirish va shifokor uchun xulosa shaklida taqdim etish
		Axborot maxfiyligi va tibbiy etikaga rioya etish, shaxsiy ma'lumotlar bilan ishlash madaniyatini saqlash
		Bilimlar:
		Bemor holatini baholash va kuzatuv olib borish bo'yicha amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar
		Asosiy hayotiy ko'rsatkichlarning me'yoriy qiymatlari
		Asbob-uskunalarining ishlash prinsiplarini va ulardan foydalanish qoidalari
	Kuzatuv jarayonida bemorning tashqi belgilarini baholash mezonlari	
	Hayotiy ko'rsatkichlardagi og'ishlarning klinik ahamiyati va ehtimoliy sabablari	
	Kuzatuv natijalarini tibbiy hujjatlarga to'g'ri va aniq kiritish tartibi	
	Asboblardan ishlashda xavfsizlik va infeksiya nazorati talablari	

		Tibbiy etika va deontologiya qoidalarini, muloqot madaniyati va axborot maxfiyligi tamoyillari
	E2.03.5 - Bemorlarga parvarish va sog'lom turmush tarzi bo'yicha amaliy tavsiyalar berish	<p>Mehnat harakatlari:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Bemorning umumiy holatini va parvarish ehtiyojlarini baholash 2. Bemorning shaxsiy gigiyena, ovqatlanish va dam olish rejimini tashkil etish bo'yicha tavsiyalar tayyorlash 3. Sog'lom turmush tarzi, ovqatlanish, jismoniy faollik va zararli odatlarning oldini olish bo'yicha sanitariya-ma'rifiy suhbatlar o'tkazish <p>Ko'nikmalar:</p> <p>Bemorning umumiy holatini klinik belgilar asosida baholash usullarini qo'llash</p> <p>Parvarish ehtiyojini aniqlashda standart baholash shkalalaridan foydalanish</p> <p>Bemorning shaxsiy gigiyena va ovqatlanish rejimini yoshi, kasalligi va holatidan kelib chiqib individual ravishda rejalashtirish</p> <p>Bilimlar:</p> <p>Bemor holatini baholash mezonlari va parvarish ehtiyojini aniqlash usullari</p> <p>Parvarish standartlari va xalqaro tavsiya etilgan baholash shkalalari</p> <p>Gigiyenik parvarish, ovqatlanish va dam olish rejimi qoidalari</p> <p>To'g'ri ovqatlanish, suv rejimi va nutritsion qo'llab-quvvatlashning asosiy prinsiplari</p> <p>Sog'lom turmush tarzi tamoyillarini — jismoniy faollik, psixoemotsional barqarorlik, zararli odatlarning oldini olish tamoyillari</p> <p>Infeksiya xavfini kamaytirish uchun aseptika, antiseptika va sanitariya-gigiyena talablari</p> <p>Bemor va uning yaqinlari bilan muloqotda tibbiy etika, deontologiya va psixologik yondashuv qoidalarini bilish</p>
	Mas'uliyat va mustaqillik:	<ol style="list-style-type: none"> 1. O'z harakatlari, ish natijalari uchun javobgarlik 2. Zarur bo'lganda, muammolarni hal qilish uchun mustaqil qarorlar qabul qilish
E3.5 - Diagnostik va yordamchi tibbiy jarayonlarda ishtirok etish	E3.01.5 - Asbob-uskunalar tayyorlash va ularning ish holatini ta'minlash	<p>Mehnat harakatlari:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Kerakli tibbiy asbob-uskunalar ro'yxat asosida tanlash va ish joyiga joylashtirish 2. Asbob-uskunalar tashqi holati va ish qobiliyatini ko'zdan kechirish 3. Asboblarni ishlatishdan oldin sanitariya va texnik holatini tekshirish 4. Elektron va mexanik uskunalar ish rejimi, displey va signal tizimlarini sinovdan o'tkazish 5. Asbob-uskunalar ishga tayyorlash, ularni shifokor ko'rsatmasiga muvofiq sozlash

	<p>6. Foydalanilgandan keyin asboblarni tozalash, dezinfeksiya qilish va sterilizatsiyaga tayyorlash</p> <p>7. Ish jarayonida nosozlik aniqlanganda, asbobni ishdan chiqarish va ta'mirga yuborish haqida rahbariyatga ma'lumot berish</p> <p>Ko'nikmalar:</p> <p>Asbob-uskunalarning turlari va ularning ish prinsipini ajratib bilish va to'g'ri tanlash</p> <p>Asboblarni joylashtirishda ergonomika va xavfsizlik talablariga amal qilish</p> <p>Elektr va mexanik tibbiy uskunalarni ishga tayyorlash, tekshirish va ishlatish</p> <p>Ish boshlashdan oldin vizual va funksional tekshiruv algoritmlarini qo'llash</p> <p>Asboblardagi nosozlikni aniqlash va uni bartaraf etish yoki texnik xizmatga yuborish tartibini amalga oshirish</p> <p>Asbob va uskunarlar bo'yicha hisobot hujjatlarini to'ldirish, qayd etish va tahlil qilish</p> <p>Asboblar bilan ishlashda shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish va xavfsizlikka rioya qilish</p> <p>Bilimlar:</p> <p>Asbob-uskunalarning tuzilishi, funksiyalari va ishlash prinsiplari</p> <p>Asbob-uskunalarni ishlatishdan oldin tekshirish, kalibrovka qilish va sinovdan o'tkazish tartibi</p> <p>Asboblarni sterilizatsiya va dezinfeksiya qilish usullari</p> <p>Asbob-uskunalardagi nosozliklar va avariya holatlarini aniqlash belgilari va ularni bartaraf etish tartibi</p> <p>Elektr xavfsizligi, ish muhitida mehnat muhofazasi va texnik xavfsizlik talablari</p> <p>Asboblar bilan ishlaganda aseptika va antiseptika qoidalari bo'yicha bilimlar</p> <p>Tibbiy asboblarni ishlatishda amaldagi standartlar va yo'riqnomalar bo'yicha bilimlar</p>
E3.02.5 - Laboratoriya va instrumental tekshiruvlar uchun biologik materiallarni to'plash	<p>Mehnat harakatlari:</p> <p>1. Tekshiruv turiga ko'ra biologik materialni aniqlash</p> <p>2. Biomaterial to'plash uchun zarur asboblar, idishlar va sarf materiallarni tayyorlash</p> <p>3. Bemorga tekshiruvning maqsadi va jarayoni haqida axborot berish va ruxsat olish</p> <p>4. Biologik materialni aseptika va antiseptika talablariga rioya qilgan holda to'plash</p> <p>5. To'plangan materialni tegishli hujjatlar bilan birga laboratoriyaga yetkazish</p> <p>6. Biomaterialni to'g'ri belgilangan harorat va muddatda saqlashni ta'minlash</p> <p>7. Manipulyatsiyadan keyin ish joyini dezinfeksiya qilish va asboblarni sterilizatsiyaga tayyorlash</p>

		8. Bajarilgan manipulyatsiya haqida tibbiy hujjatlarga yozuv kiritish
		Ko'nikmalar:
		Laboratoriya tekshiruv turlariga mos biomaterialni to'g'ri tanlash va tayyorlash
		Vena, barmoq, yoki boshqa anatomik nuqtalardan qon olish texnikasini qo'llash
		Biomateriallar namunalarini sanitariya talablariga muvofiq yig'ish va saqlash
		Aseptika va antiseptika talablariga rioya qilib, xavfsiz manipulyatsiya o'tkazish
		Biomaterial idishlarini to'g'ri belgilash va hujjatlashtirish
		Biologik materialni harorat, vaqt va tashish talablariga mos holda laboratoriyaga yetkazish
		Bajarilgan amaliyotni tibbiy hujjatlarda aniq va to'liq qayd etish
		Biologik xavfsizlik qoidalariga amal qilish va shaxsiy himoya vositalaridan to'g'ri foydalanish
		Bilimlar:
		Laboratoriya va instrumental tekshiruvlar turlari va ular uchun kerakli biomaterial turlari
		Biologik material to'plash, saqlash va tashish bo'yicha sanitariya-gigiyena talablari
		Aseptika va antiseptika qoidalarini, shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish tartibi
		Qon, peshob va boshqa materiallarni olish texnikalari va ko'rsatmalari
		Biologik material bilan ishlashda infeksiya xavfini oldini olish choralari
		Biomaterialni belgilangan haroratda va muddatda saqlash qoidalari
		Biomaterial idishlarini belgilangan standartlar asosida yorliqlash va hujjatlashtirish tartibi
		Bemor bilan ishlashda muloqot madaniyati, etika va deontologiya talablari
		Biologik xavfsizlik va mehnat muhofazasi bo'yicha amaldagi me'yoriy hujjatlar
		Bajarilgan amaliyot haqida tibbiy hujjatlarni to'ldirish va hisobot yuritish qoidalari
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. O'z harakatlari, ish natijalari uchun javobgarlik
		2. Zarur bo'lganda, muammolarni hal qilish uchun mustaqil qarorlar qabul qilish
Texnik va/yoki texnologik talab		Tonometr, termometr, fonendoskop, shpris va ignalar, infuzion tizimlar, kushetka, dezinfeksiya vositalari, spirt va tamponlar, qo'lqop, xalat, baxila, niqob, bint va paxta, chiqindilar uchun konteyner, qo'l yuvish vositalari, lampa va shamollatish tizimi, asboblar, birinchi yordam jihozlari, sterilizatsiya va dezinfeksiya uchun asboblar.

V. Kasbiy standartning texnik ma'lumotlari

5.1. Kasbiy standartning rekvizitlari

1.	Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashining tasdiqlash hujjatlari:	Sog'liqni saqlash va farmatsevtika sohasida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashining 23-yanvar 2026-yildagi 1-son bayoni
2.	Milliy malaka tizimini rivojlantirish institutining xulosasi:	KS-0082-son xulosa, 24.02.2026
3.	Kasbiy standart talqini va ishlab chiqilgan sanasi:	1.0-talqin, 13.02.2026
4.	Taxminiy qayta ko'rib chiqish sanasi:	13.02.2031

5.2. Kasbiy standartni ishlab chiqishga mas'ul tashkilot haqida ma'lumotlar

Sog'liqni saqlash vazirligi

(tashkilot nomi)

Vazirning birinchi o'rinbosari

Boboyev Alisher Shukrullayevich

(rahbarning lavozimi, imzosi va F.I.O.)

5.3. Kasbiy standartni ishlab chiqishda ishtirok etgan tashkilot (korxonalar) to'g'risida ma'lumot

T/r	Ishlab chiquvchilar to'g'risida ma'lumot	
	Ish joyi va lavozimi	Familiyasi, ismi, otasining ismi
1.	O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi fan ta'lim va innovatsiyalar boshqarmasi boshlig'i	Ismailov O'ktam Safayevich
2.	Toshkent davlat tibbiyot universiteti kafedra mudiri	Azimov Aziz Muxamedjanovich
3.	Toshkent davlat tibbiyot universiteti kafedra mudiri	Kamilov Xaydar Pazilovich
4.	Toshkent davlat tibbiyot universiteti dotsenti	Yakubov Erkin Amongeldiyevich
5.	Toshkent davlat tibbiyot universiteti assistenti	Nazarova Nigina Otabek qizi
6.	Toshkent davlat tibbiyot universiteti dotsenti	Atakov Sarvar Sultanbayevich
7.	Toshkent davlat tibbiyot universiteti dotsenti	Nuritdinova Nigora Batirovna
8.	Toshkent farmatsevtika instituti o'qituvchisi	Sultanova Rano Khakimovna
9.	Tibbiyot xodimlarini kasbiy malakasini rivojlantirish markazi dotsenti	Xaydarova Ravshankhon Turg'unovna
10.	Tibbiyot xodimlarini kasbiy malakasini rivojlantirish markazi dotsenti	Rakhimov Azamat Ulugovich



**SOGʻLIQNI SAQLASH VA FARMATSEVIKA SOHASIDA KASBIY
MALAKALARNI RIVOJLANTIRISH BOʻYICHA TARMOQ KENGASHI**

KASBIY STANDART

**BEMORLARGA TIBBIY YORDAM KOʻRSATISH,
PARVARISH VA PROFILAKTIKA ISHLARINI AMALGA
OSHIRUVCHI HAMSHIRALAR**